

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**BITURAYEV UKTAMJON BAZARBAYEVICH**

**GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASINING MARKAZIY OSIYO**  
**DAVLATLARI BILAN O‘ZARO ALOQALARINING RIVOJLANISH**  
**JARAYONLARI**

**23.04.00- Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining**  
**siyosiy muammolari**

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**UDK: 329.73 (571.51)**

**БКК: 66.4 (5)**

**В: 66**

**Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по политическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of  
Philosophy (PhD) in political sciences**

**Bituraev Uktamjon Bazarbayevich**

Germaniya Federativ Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro aloqalarining rivojlanish jarayonlari.....

**Битюраев Уктамжон Базарбаевич**

Процессы развития взаимоотношений Федеративной Республики Германия со странами Центральной Азии.....

**Biturayev Uktamjon Bazarbaevich**

Processes of the development of relations between the Federal Republic of Germany and the Central Asian states .....

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**BITURAYEV UKTAMJON BAZARBAYEVICH**

**GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASINING MARKAZIY OSIYO  
DAVLATLARI BILAN O‘ZARO ALOQALARINING RIVOJLANISH  
JARAYONLARI**

**23.04.00- Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining  
siyosiy muammolari**

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**



## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kundagi murakkab geosiyosiy vaziyatda jahon tartibotining o'zgarishi va xalqaro munosabatlar tizimiga nisbatan tanqidiy qarashlarning o'sib borishi milliy, mintaqaviy va global darajadagi jarayonlarni tartibga solish hamda xalqaro barqarorlikka erishish maqsadlari davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning hozirgi holatiga bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Shu boisdan mintaqalar va davlatlar taraqqiyotida o'zaro bog'liqlikning ortib borayotganligi sharoitida Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi munosabatlarning shakllanish va rivojlanish dinamikasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Markaziy Osiyo davlatlarining hozirgi davrdagi tashqi siyosiy faoliyati, mintaqaga nisbatan tashqi kuchlarning geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlarini baholash xalqaro ilmiy izlanishlarning tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Xususan, mazkur tadqiqotlarda Germaniyaning Markaziy Osiyoga nisbatan tashqi siyosatining shakllanishi va rivojlanishi, mintaqada davlatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikligi hamda bu borada muhim platformaga aylangan "Markaziy Osiyo-Germaniya" formati doirasida ko'p tomonlama munosabatlarni kompleks tarzda tadqiq etish, Germaniyaning Markaziy Osiyoga nisbatan siyosatini Yevropa Ittifoqi kontekstida aniqlash, YIning mintaqaga nisbatan 2007 va 2019-yilgi strategiyalarini ishlab chiqilishida Germaniyaning ta'sirini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishga qaratilgan tadqiqotlar safi tobora kengayib bormoqda.

O'zbekistonning bugungi tashqi siyosati faol va pragmatik yondashuvlarga asoslangan. "O'zbekiston-2030" strategiyasida Yevropa mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investisiyaviy va texnologik hamkorlikni rivojlantirish alohida maqsad sifatida qayd etilgani, Germaniya Yevropa Ittifoqining drayver davlati sifatida O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega hamkor sanalishi, O'zbekiston Germaniya bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali o'zining xalqaro mavqeyini mustahkamlash, iqtisodiy modernizatsiya va global integratsiyani tezlashtirish imkoniyatiga ega ekanligi har tomonlama manfaatli hisoblanadi. "O'zbekiston Germaniyaning Markaziy Osiyo mintaqasi bilan ko'p qirrali hamkorlik bo'yicha salohiyati yanada to'liqroq ro'yobga chiqishidan manfaatdor"<sup>1</sup>. Darhaqiqat, Germaniya bilan savdo, investisiyalar, ta'lim va texnologiya sohasidagi hamkorlik O'zbekistonning iqtisodiy diversifikatsiyasi, islohotlar jarayoni va xalqaro bozorlarga chiqish strategiyasi uchun muhim hisoblanadi. Shu jihatdan Germaniyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarini tadqiq etish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Ushbu dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston - 2030 strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 1-fevraldagi PQ-4145-son

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Марказий Осиё – Германия" иккинчи саммитидаги нутқи. Остона шаҳри, 2024 йил 17 сентябрь // <https://www.president.uz/uz/lists/view/7554>

“O‘zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi o‘rtasida ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tadqiqot mavzusi mintaqa va xorijiy davlatlar, shu jumladan, Germaniyaning bir qator siyosatshunos, huquqshunos, iqtisodchi va boshqa soha vakillari hamda tadqiqot markazlari, xususan, Germaniya tadqiqot markazlarida mazkur mavzuga doir tizimli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mavzuga oid tadqiqotlar, ilmiy ishlanmalar va asarlarni quyidagicha guruhlashtirish mumkin<sup>2</sup>:

*Birinchi guruh.* Markaziy Osiyo mintaqasining geosiyosiy ahamiyati, mintaqa davlatlari o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari, mintaqadagi xavfsizlik muhiti, ularning tashqi kuchlar bilan, xususan, YI bilan aloqalari mahalliy olimlar ilmiy ishlarida o‘rganilgan. Bular qatoriga Sh. Arifxanov, S. Jurayev, D. Sayfullayev, D. Madaminova, O. Sirojov, S. Ubaydullayeva, A. Umarovlarni kiritish mumkin. Shuningdek, bevosita Markaziy Osiyo davlatlarining Germaniya Federativ Respublikasi bilan munosabatlari, ikki va ko‘p tomonlama formatlar doirasidagi aloqalari, xususan, Yevropa Ittifoqi doirasidagi hamkorligi ma‘lum ma‘noda F. Ismatullayev, M. M. Nazirov, E. Nuriddinov, M. Raximov, S. Umarov, H. M. Yunusov singari mahalliy tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilgan.

*Ikkinchi guruh* tadqiqotchilariga mavzuni bevosita tadqiq etgan MDH makonidagi ilmiy izlanuvchilarni keltirish mumkin. Xususan, U. Akmatbaev, A. Asima, A. Golnik, B. Kasenova, M. Laumulin, S. Pogorelskaya, L. Rustamova, A. Tuyakbayeva, S. M. Yun kabi tadqiqotchilarda Germaniyaning mustaqil va YI doirasida Markaziy Osiyoga nisbatan siyosati keng tadqiq etilgan.

Tadqiqot obyekti bo‘yicha dastlabki fundamental tadqiqot – Germaniyaning 1992-2009 yillardagi Markaziy Osiyo bo‘yicha siyosati qozog‘istonlik olimi Aygul Tuyakbayeva tomonidan o‘rganilgan. Biroq, A. Tuyakbayevaning 2009-yildagi tadqiqotida eslatilgan kam sonli kontent haqidagi fikrlari hamon o‘z dolzarbligini yo‘qotmaganligini ta‘kidlashmiz mumkin. Keyinchalik yana bir qozog‘istonlik olimi B. B. Kasenova va o‘zbekistonlik S. Y. Umarovlar ham mazkur mavzuga doir o‘z tadqiqotlarini yaratdi. B. B. Kasenova Germaniyaning Markaziy Osiyo siyosatini mintaqaviy va mamlakatshunoslik milliy maktablarini mustahkamlash,

---

<sup>2</sup> Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

xalqaro maydonda Markaziy Osiyoning yaxlit kun tartibini shakllantirish maqsadida o‘rganish juda muhimligini ta’kidlab o‘tgan.

*Uchinchi guruh.* Mazkur guruhga Germaniyaning Markaziy Osiyoga nisbatan siyosati, o‘zaro hamkorlik munosabatlarining zamonaviy tendensiyalarini tadqiq etgan g‘arb, jumladan, nemis olimlarini kiritish mumkin. Y. Gartland, T. Kilinger, M. Otte, A. Klinnert, D. Kraa, A. Kreykemeer, F. Myuller, S. Shik, A. Shokenxoff singari tadqiqotlarni bularga misol sifatida keltirish mumkin.

Biroq, o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili shundan darak bermoqdaki, yurtimiz olimlarining siyosiy fanlar doirasidagi ilmiy ishlarida Germaniyaning Markaziy Osiyo siyosati, mintaqa davlatlar bilan o‘zaro munosabatlari kompleks tarzda va yetarlicha ilmiy tadqiq etilmagan. Odatda yuqori darajadagi davlat tashriflarining natijalari bo‘yicha ayrim tahliliy materiallar e‘lon qilinadi, ularda qat’iy tematika, erishilgan natijalarni e’tirof etish kabi holatlar ustunlik qiladi. Shu nuqtayi nazardan Germaniya va Markaziy Osiyo davlatlar munosabatlari bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar safini kengaytirish zarurati mazkur tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining ish bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasidan o‘rin olgan “Markaziy va Janubiy Osiyo o‘zaro bog‘liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqboli (O‘zbekistonning tashabbuslari asosida)” amaliy tashabbuskor loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Germaniyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi tendensiyalarini aniqlash hamda istiqboli bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Germaniyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarini xalqaro munosabatlarning mumtoz va yangi nazariyalari hamda konsepsiyalari misolida o‘rganish;

Germaniya va Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligining shartnomaviy-huquqiy asoslarini ko‘rib chiqish;

YIning 2007 va 2019-yillardagi mintaqaga nisbatan strategik hujjatlarni qabul qilinishida Germaniyaning ta’sirini aniqlash;

Ikki tomonlama siyosiy va savdo-iqtisodiy munosabatlar dinamikasini aniqlash hamda ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni izohlash;

Germaniya va Markaziy Osiyo davlatlari munosabatlari shakllanishida iqtisodiy omilni an’anaviy va “yashil energetika” manfaatlari asosida ko‘rib chiqish;

Germaniyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarini mintaqaviy xavfsizlik kontekstida tahlil qilish;

Mintaqadagi nemis siyosiy jamg‘armalari faoliyatining mohiyati va faoliyat mexanizmini tadqiq etish hamda ilm-fan va ta’lim sohasidagi hamkorligini aniqlash;

O‘zbekiston va Germaniya aloqalari istiqbollarini aniqlash, ustuvor yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatishdan iborat.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Germaniyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlari belgilangan.

**Tadqiqot predmetini** Germaniyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro aloqalarining shakllanishi va rivojlanish dinamikasi, ushbu munosabatlarning asosiy yo‘nalishlari, uni amalga oshiruvchi mexanizmlari, ta’sir etuvchi omillari, shuningdek, ularning mintaqaviy va global kontekstdagi o‘rni va ahamiyati tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda fanlararo yondashuv, qiyosiy tahlil, SWOT tahlil, kontent tahlil, omilliy tahlil, hujjatlar tahlili, tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Germaniya Federativ Respublikasining tashqi siyosatida Yevropa mintaqasining hayotiy muhim manfaatlar makoni ekanligi, ushbu mintaqaga Germaniya tashqi siyosiy strategiyasining ustuvor yo‘nalishini tashkil etishi hamda Germaniyaning Yevropadagi nufuzli ta’sir kuchiga ega maqomidan kelib chiqqan holda, uning geografik joylashuviga qaratilgan geosiyosiy kodlari “O‘rta kuch” konsepsiyasiga ko‘ra asoslab berilgan;

Germaniya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va Markaziy Osiyo mintaqasiga Germaniya investitsiyasini jalb etishning yetarli va kutilgan darajada emasligi Germaniya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi masofa jo‘g‘rofiy jihatdan uzoq ekanligi bilan bog‘liq degan yondashuvdan voz kechgan holda, “Markaziy Osiyo-Germaniya” sammiti doirasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish maqsadida “texnologiya evaziga xom ashyo” formulasiga asoslangan Xeksher-Olin (Heckscher–Ohlin model) modelidan foydalanish zarurati isbotlangan;

Germaniya Federativ Respublikasi Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi mintaqalararo hamkorlikning shakllantiruvchisi va ramziy ko‘prigi vazifasini bajarib kelayotganligi, madaniy-gumanitar hamkorlik ikki tomonlama va mintaqalararo munosabatlarda siyosiy-iqtisodiy va diplomatik aloqalarning asosi bo‘lib xizmat qilayotgani, ilmiy va ta’lim almashinuvining qo‘shimcha samarasi Markaziy Osiyo davlatlarining texnologik va iqtisodiy modernizatsiyasiga hissa bo‘lib qo‘shilayotgani Germaniya akademik almashinuv xizmati (DAAD) tajribasi asosida dalillangan;

O‘zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasining bosh ustuvor yo‘nalish sifatidagi roli Germaniyaning Yevropa Ittifoqi doirasidagi ochiq va faol tashqi siyosat an‘analari bilan muvofiq va mushtarak ekanligi hamda Markaziy Osiyo mintaqasi integratsiyasini shakllantirishda Yevropa Ittifoqi tajribasidan samarali foydalanish va ko‘p tomonlama strategiyalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish maqsadida Markaziy Osiyoning Yevropa Ittifoqi bo‘yicha strategiyasini ishlab chiqish taklifi asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Tadqiqotda ilk bor 1991-2024 yillarda Markaziy Osiyo davlatlari va Germaniya o‘rtasidagi tashqi siyosiy loyihalarning joriy etilish holati tahlil qilingan. Shuningdek, mintaqaviy muloqotning munosabatlar rivojiga ta’siri ilmiy jihatdan o‘rganilib, bunda “Markaziy Osiyo+Germaniya” formatining ahamiyati samarali ekanligi ta’kidlanib, mazkur formatni mustahkamlash bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan;

xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlili asosida Markaziy Osiyo davlatlarining Germaniya bilan siyosiy va savdo iqtisodiy hamda madaniy gumanitar aloqalarining dinamikasi yoritilib, ular asosida Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosatini o'rganish va o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlar aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Dissertatsiyada tadqiqot mavzusiga doir davlat va hukumat rahbarlarining nutqlari, Tashqi ishlar vazirliklari tomonidan taqdim qilingan rasmiy ma'lumotlar, birlamchi ilmiy manbalardan foydalanilganligi, uning ilmiy muomalaga kiritilgani, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallarida, OAK ro'yxatiga kirgan maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy konferensiya materiallarida e'lon qilinganligi, amaliyotga joriy qilinganligi va vakolatli idoralar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlanganligi bilan ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning *ilmiy ahamiyati* uning materiallaridan "Siyosatshunoslik", "Xalqaro munosabatlar", "Geosiyosat", "Xalqaro xavfsizlik", "Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari", "Zamonaviy xalqaro munosabatlarda O'zbekiston manfaatlari" kabi fanlar bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda, tashqi siyosatga doir tadqiqotlar o'tkazishda foydali bo'lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* esa tadqiqot materiallari va xulosalaridan tegishli vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari va sohaga oid muassasalar mutaxassislari uchun tahliliy materiallar tayyorlashda, ixtisoslashgan ta'lim muassasalarining o'quv kurslari va dasturlari, tegishli yo'nalishlardagi tadqiqot ishlarini bajarishda foydalanish mumkinligi bilan ifodalanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Germaniyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarini yoritish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

O'zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasining bosh ustuvor yo'nalish sifatidagi roli Germaniyaning Yevropa Ittifoqi doirasidagi ochiq va faol tashqi siyosat an'analari bilan muvofiq va mushtarak ekanligi hamda Markaziy Osiyo mintaqasi integratsiyasini shakllantirishda Yevropa Ittifoqi tajribasidan samarali foydalanish va ko'p tomonlama strategiyalarni o'zaro uyg'unlashtirish maqsadida Markaziy Osiyoning Yevropa Ittifoqi bo'yicha strategiyasini ishlab chiqish taklifiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Markaziy Osiyo respublikalari bilan hamkorlik boshqarmasi tomonidan respublika vazirlik va idoralarga yuboriladigan axborot-tahliliy hujjatlarni tayyorlashda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2024-yil 14-iyundagi №1518623 raqamli ma'lumotnomasi*). Natijada, dissertatsiyada bildirilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar sohaga oid axborot-tahliliy bazasini takomillashtirishga va amalda qo'llashga xizmat qilgan.

Germaniya Federativ Respublikasi Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi mintaqalararo hamkorlikning shakllantiruvchisi va ramziy ko'prigi vazifasini bajarib kelayotganligi, madaniy-gumanitar hamkorlik ikki tomonlama

va mintaqalararo munosabatlarda siyosiy-iqtisodiy va diplomatik aloqalarning asosi bo'lib xizmat qilayotgani, ilmiy va ta'lim almashinuvining qo'shimcha samarasi Markaziy Osiyo davlatlarining texnologik va iqtisodiy modernizatsiyasiga hissa bo'lib qo'shilayotgani Germaniya akademik almashinuv xizmati (DAAD) tajribasi asosida dalillanishiga oid ilmiy xulosa va takliflardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qu'mitasi faoliyatida madaniy ma'rifiy tadbirlar va ilmiy amaliy konferensiyalar tashkil qilishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining 2024-yil 9-iyuldagi № 14-07-1136-sonli ma'lumotnomasi*). Natijada, mazkur mazkur tadqiqotda ilgari surilgan taklif va xulosalar Germaniya va Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni yanada mustahkamlash, ular bilan manfaatli ilmiy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilgan.

Germaniya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va Markaziy Osiyo mintaqasiga Germaniya investitsiyasini jalb etishning yetarli va kutilgan darajada emasligi Germaniya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi masofa jo'g'rofiy jihatdan uzoq ekanligi bilan bog'liq degan yondashuvdan voz kechgan holda, "Markaziy Osiyo-Germaniya" sammiti doirasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish maqsadida "texnologiya evaziga xom ashyo" formulasiga asoslangan Xeksher-Olin (Heckscher–Ohlin model) modelidan foydalanish zaruratiga oid ilmiy xulosa, amaliy taklif va tavsiyalardan partiyaning tashqi siyosiy masalalarga bag'ishlangan takliflari va tashabbuslarida, yoshlarni xorijiy oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Germaniyada ilm olishlarini rag'batlatiridshga qaratilgan faoliyatida, xorijiy davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish mavzusidagi uchrashuvlar, tadbirlar, ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlar tashkil etishda foydalangan (*"Milliy tiklanish" Demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2025-yil 19-iyundagi 02/06-62-son ma'lumotnomasi*). Natijada, mazkur takliflar partiyaning sohaviy, axborot-tahliliy materiallarni boyitish va ushbu yo'nalishdagi chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat.

Germaniya Federativ Respublikasining tashqi siyosatida Yevropa mintaqasining hayotiy muhim manfaatlar makoni ekanligi, ushbu mintaqa Germaniya tashqi siyosiy strategiyasining ustuvor yo'nalishini tashkil etishi hamda Germaniyaning Yevropadagi ta'sirchan maqomidan kelib chiqqan holda, uning geografik joylashuviga qaratilgan geosiyosiy kodlari "O'rta kuch" konsepsiyasiga ko'ra asoslanishiga oid ilmiy xulosa va takliflaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi" davlat muassasasi tomonidan Yevropa mintaqasidagi jarayonlarni sharhlashda, Germaniya va Markaziy Osiyo munosabatlarini yoritishda, O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni yo'lga qo'yish, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish mavzusidagi soha vakillari bilan efir uchrashuvlar o'tkazishda, ikki tomonlama hamkorlik to'g'risidagi tahliliy materiallar tayyorlashda, shuningdek, madaniy-ma'rifiy sohadagi tadbirlarni tashkil etishda foydalanilgan (*O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24"*

*ijodiy birlashmasi” davlat muassasining 2025-yil 23-iyundagi 06-09-983-son ma’lumotnomasi*). Natijada Markaziy Osiyo davlatlari va Germaniya o’rtasidagi aloqalarning rivojlanish tarixi, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, fan-ta’lim sohasidagi hamkorlikning istiqbollari haqidagi ma’lumotlar ko’rsatuvlar saviyasi va ta’sir doirasining o’sishiga xizmat qilib, ma’lumotlar qamrovini oshirgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro darajadagi va 5 ta respublika miqyosidagi konferensiyada muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo’yicha jami 14 ilmiy ish, shu jumladan, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (ulardan 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr ettirilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to’qqizta paragrafni o’z ichiga olgan uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 158 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan; tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti belgilab olingan; tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlariga mosligi, amaliy natijalari hamda ilmiy yangiligi ko’rsatilgan; olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Germaniya-Markaziy Osiyo davlatlari munosabatlarining konseptual va shartnomaviy - huquqiy asoslari”** deb nomlanib unda Germaniya – Markaziy Osiyo davlatlari munosabatlari tahlilining nazariy va uslubiy jihatlari; ikki tomonlama hamkorlikning shakllanishi va uning shartnomaviy-huquqiy asoslari, mintaqada Germaniya tashqi siyosatining Yevropa Ittifoqi kontekstidagi tahlili kabi masalalar tadqiq qilingan.

Germaniyaning Markaziy Osiyoga nisbatan tashqi siyosati ikki parallel yo’nalishda olib borilmoqda. *Birinchi*dan, Yevropa Ittifoqining mintaqaviy strategiyasi bilan bog’liq tashqi siyosat. Germaniya 1992-yildan bugungi kunga qadar mintaqada mamlakatlarining Yevropa Ittifoqidagi eng ishonchli sherigi va ko’plab masalalarda tarafdori hisoblanadi. 2007-yilda qabul qilingan va 2019-yilda qayta ko’rib chiqilgan YIning Markaziy Osiyo bo’yicha strategiyasini ishlab chiqishda tashabbuskor ham Germaniya edi. *Ikkinchi*dan, Germaniya mintaqada o’zining alohida ikki tomonlama imperativlarini, jumladan, mintaqaning katta xom ashyo bozoriga kengroq kirib borish, Germaniyada ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarni mintaqaga olib kirish shuningdek mintaqada mavjud bo’lgan etnik ozchilik nemislar (nemis ruslari) manfaatlarini himoya qilish kabi o’ziga xos yondashuvni amalga oshirmoqda.

Germaniya va Markaziy Osiyo davlatlari o’rtasidagi munosabatlar 1992-yildan, murakkab tarixiy siyosiy sharoitda, shakllangan. Tomonlar o’rtasidagi

ikki tomonlama shartnomalar<sup>3</sup>, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar dasturlar<sup>4</sup> hamda Markaziy Osiyo bo'yicha YI strategiyalarida<sup>5</sup> o'zaro munosabatlarning shartnomaviy, iqtisodiy va madaniy gumanitar asoslari belgilab berilgan.

Bir qator mualliflarning izlanishlarida tadqiqot mavzusining nazariy asoslari yaratilgan. Xususan, M. fon Gumpenberg Germaniyaning Markaziy Osiyo davlatlari siyosiy va iqtisodiy hamkorligini tahlil qilib, ularning mintaqaga ta'siri va o'z manfaatlarini ilgari surish imkoniyatlari cheklangan, degan xulosaga keladi. Hamkorlikning ijtimoiy, siyosiy-iqtisodiy, huquqiy, harbiy jihatlarini ko'rib chiqqan tadqiqotchi A.Varkoch Germaniyaning mintaqadagi siyosatining muammo va imkoniyatlarini tahlil qiladi.

Germaniya mintaqani tadqiqot qilish bo'yicha imkoniyatlar bo'lishiga va Germaniyaning mintaqadagi manfaatlari yetarlicha ekanligiga qaramasdan, ilmiy izlanishlarning Markaziy Osiyo yo'nalishi keng rivojlanmagan. Nemis mualliflarining mavjud kam sonli tadqiqotlari Germaniya, YI va Markaziy Osiyo davlatlari munosabatlarning xavfsizlik, tranzit, inson huquqlari, terrorizm va giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurash hamda turli savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar tashabbuslarini amalga oshirish masalalari doirasida o'rganishga qaratilgan. Shu bois, ko'rib chiqilgan ishlar mavzuviy yondashuv doirasidan chetga chiqmaydi hamda institutsional yondashuv nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilmoqda, degan xulosa ilgari surilmoqda. Bunga sabab sifatida esa germaniyalik mutaxassislarning mintaqamizni zaif mintaqaviy va xalqaro subyekt sifatida baholashi hamda xalqaro munosabatlarning transmilliy tizimini shakllantirishga ta'siri cheklangan deb hisoblashi ko'rsatilmoqda.

Markaziy osiyolik olimlardan o'zbekistonlik - E. Nuriddinov, S. Y. Umarov, M. M. Nazirov, H. M. Yunusov, qozog'istonlik - S. T. Tayshanova, A. Tuyakbayeva va B. Kasenova; qirg'izistonlik - G. K. Kulmatova, Z. M. Abdirazakov; tojikistonlik - M. M. Xalimova, I. S. Radjabova, A. M. Ashurovlarning tadqiqotlarida Markaziy Osiyo davlatlarining Germaniya va YI bilan aloqalarining ham ilmiy, ham nazariy asoslari shakllantirilgan. Markaziy osiyolik mualliflarning ilmiy ishlari, germaniyalik mualliflar tadqiqotlaridan farqli tarzda tarkibiy yondashuvga asoslanadi. Bu Markaziy Osiyo davlatlarining Germaniya va YI bilan asosan ikki tomonlama munosabatlari, davlatlararo kelishuvlar, mintaqa rahbarlarining Germaniyaga tashriflari tahliliga bag'ishlangan

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Germaniya Federativ Respublikasi Hukumati o'rtasida Ilmiy tadqiqotlar va mutaxassislar fondini tashkil etish to'g'risida Bitim, 28.04.1993; O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Germaniya Federativ Respublikasi Hukumati o'rtasida Madaniy hamkorlik to'g'risida Bitim, 28.04.1993; O'zbekiston Respublikasi bilan Germaniya Federativ Respublikasi o'rtasida Sarmoyalar qo'yishni amalga oshirish va o'zaro himoya qilishga ko'maklashish To'g'risidashartnoma, 28.04.1993; Qozog'iston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi o'rtasida iqtisodiyot, sanoat, fan va texnika sohalarida keng ko'lamlilik hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida Shartnoma, 22.09.1992; Qirg'iziston Respublikasi Hukumati va Germaniya Federativ Respublikasi Hukumati o'rtasida madaniy hamkorlik to'g'risida Bitim, 23.08.1993; Tojikiston Respublikasi Hukumati va Germaniya Federativ Respublikasi Hukumati o'rtasida madaniy hamkorlik to'g'risida Bitim va Tadqiqotlar jamg'armasini tashkil etish, mutaxassislar tayyorlash hamda madaniy hamkorlik sohasida hamkorlik qilish to'g'risida Bitim, 26.09.1995.

<sup>4</sup> Программа Федерального министерства экономики и технологий по повышению квалификации менеджеров из Узбекистана//<https://taschkent.diplo.de/uz-ru/themen/wirtschaft/managerfortbildung>. 20.07.2020.

<sup>5</sup> ЕС принял новую стратегию отношений со странами Центральной Азии // <https://www.dw.com/ru/23.07.2020>.

ko‘plab ilmiy tahliliy materiallar mavjudligida namoyon bo‘ladi. So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlarida Germaniya va YIning mintaqa davlatlari bilan munosabatlarini ilmiy tahlil qilish va uni anglash jarayoni ancha faol kechmoqda, bu esa mintaqa mamlakatlarining faol xalqaro va mintaqaviy jarayonlarga nisbatan o‘z intellektual refleksiyasiga intilishidan dalolat beradi.

Tomonlar o‘rtasidagi siyosiy aloqalarning nazariy jihatlarini tadqiq qilish masalasiga kelsak, unda dastlab ichki va tashqi siyosatning o‘zaro bog‘liqligiga oid nazariyalarga e‘tibor qaratildi. Germaniyaning Markaziy Osiyo bo‘yicha tashqi siyosatini tushunishda uning tashqi siyosatiga oid, jumladan, unga ta’sir qiluvchi ichki omillar to‘g‘risidagi nazariy qarashlar ko‘rib chiqildi. Germaniya davlat siyosati yo‘nalishlarini aniqlashda kuch, vorisiylik va uzoqni ko‘ra bilish kabi omillarga e‘tibor qaratish muhim ekanligi aniqlangan. Aksariyat germaniyalik mutaxassislarining ta’kidlashicha, Germaniya tashqi siyosatining shakllanishida vorisiylik alohida ahamiyatga ega. Vorisiylik bilan bog‘liq tushunchalarni yaxshi bilish Germaniyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosati qanday tamoyillarga tayanishini, mintaqa bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar Germaniya ichki siyosatining qaysi xususiyatlari asosida belgilanishini anglashga sabab bo‘ladi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan keyingi usul bu kontent-tahlil bo‘lib, u hujjatlarning sifatli kontent-tahlili elementlariga asoslanib, Germaniya va Markaziy Osiyo davlatlarining ichki siyosiy o‘zgarishlari va xalqaro xatti-harakatlarining o‘zaro bog‘liqligini aniqlash (ichki va tashqi siyosatning o‘zaro ta’siri) imkonini beradi.

*Shartnomaviy-huquqiy asos va siyosiy aloqalar.* Hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asosi madaniyat, iqtisodiyot, moliyaviy va texnik hamkorlik, sog‘liqni saqlash, ta’lim, energetika, transport, suv resurslari va boshqa turli sohalarni qamrab oladi. Tadqiqot davomida davlatlararo shartnomaviy-huquqiy asoslarni o‘rganishdan avval Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosiy konsepsiyalari va ularda Yevropa Ittifoqi jumladan, Germaniyaga nisbatan shakllantirilgan qarashlar qisqa tahlil qilinib, natijada mintaqa mamlakatlarining barchasida Germaniyaga nisbatan vaqt sinovidan o‘tgan ishonchli sherik munosabati shakllanganligi aniqlandi.

O‘zbekistonning 2012-yilda qabul qilingan “Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va «O‘zbekiston-2030» strategiyasida, Qozog‘istonning 2014-2020 yillarga mo‘ljallangan tashqi siyosiy konsepsiyasida<sup>6</sup>, 2019-yilda ishlab chiqilgan Qirg‘iziston tashqi siyosat konsepsiyasida<sup>7</sup>, 2015-yilda qabul qilingan Tojikiston Respublikasi tashqi siyosat konsepsiyasida<sup>8</sup> hamda 2017-2023 yillarga mo‘ljallangan Betaraf

---

<sup>6</sup> О Концепции внешней политики Республики Казахстан на 2020 – 2030 годы. 9 марта 2020 года. <https://www.akorda.kz/ru>

<sup>7</sup> Указ Президента Кыргызской Республики. Концепция внешней политики Кыргызской Республики: утв. 11 марта 2019 года, №37 // <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/430045>. 27.10.2019.

<sup>8</sup> Указ Президента Республики Таджикистан. Концепция внешней политики Республики Таджикистан: утв. 27 января 2015 года, №332 // <https://tajemb.kiev.ua/kontsepsiya-vneshnej-politiki-respubliki>. 21.07.2017.

Turkmanistonning tashqi siyosiy kursi konsepsiyasida<sup>9</sup> Yevropa davlatlari, xususan, Germaniya ham asosiy hamkor davlatlar sifatida ko'rsatilgan.

GFRda ham Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan alohida munosabat shakllangan. 2023-yilda qabul qilingan Germaniyaning birinchi Milliy xavfsizlik strategiyasida<sup>10</sup> Markaziy Osiyo alohida ahamiyatga ega mintaqa sifatida ko'rsatilmagan bo'lsa-da, Tashqi ishlar vazirligida Rossiya yoki Xitoyning mintaqada ustunligiga yo'l qo'ymaslik uchun Germaniya Markaziy Osiyoga ko'proq e'tibor qaratishi haqida hujjat loyihasi borligi haqida xabarlar bor edi<sup>11</sup>.

Mavjud nazariy va faktik materiallar tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi: Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqilligining dastlabki yillarida Germaniyada mintaqa mamlakatlari haqida tizimli tasavvur shakllantirishga intildi va bu XX asrning 90-yillar boshidagi shartnomaviy bazada o'z aksini topgan. O'sha davrda Germaniya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida asosan madaniy hamkorlik to'g'risida bitimlar tuzilgan bo'lsa, 90-yillarning ikkinchi yarmidan 2000-yillar boshlarigacha iqtisodiyot, moliya, sog'liqni saqlash, chegaralarni mustahkamlash masalasida, jinoyatchilikka qarshi kurash, mineral xomashyo eksporti bo'yicha qo'shma loyihalar bo'yicha bitimlar imzolangan.

“Sovuq urush” yakunlanib Sovet Ittifoqi qulashi bilan YI postsovet respublikalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi va bunda aksariyat hollarda Germaniya tashabbuskor bo'ldi. YIning MDH mintaqasiga nisbatan strategiyasida asosiy vosita *Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim* (ShHTB) bo'lgan. Bu turdagi shartnomalar 1995-1996 yillarda Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston bilan imzolanib, 1999-yil Ittifoqning barcha davlatlari va Yevropa Parlamenti tomonidan ratifikatsiya qilinganidan so'ng to'liq kuchga kirgan. YI va Tojikiston o'rtasidagi ShHTB 2004-yilda imzolanib, 2010-yil ratifikatsiya qilingan bo'lsa, Turkmaniston bilan 1998-yilda imzolangan Shartnoma 2009-yilda ratifikatsiya qilingan<sup>12</sup> va shu tariqa o'zaro hamkorlikning huquqiy shartnomaviy asoslari yaratildi va Markaziy Osiyo davlatlari YIning Imtiyozlar umumiy tizimi benefisiarlariga aylandi. Ushbu kelishuvlar YIga qo'shilish uchun hech qanday istiqbolni taqdim etmasa-da, savdo munosabatlarida o'zaro manfaatdorlikka xizmat qiladi. Yana bir muhim vosita YIning mintaqadagi siyosatida MDHga texnik yordam ko'rsatish (TACIS)<sup>13</sup> dasturi bo'lib, u 1992-yildan ishlab kelayotgan, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash va hamkor mamlakatlar o'rtasida siyosiy aloqalarni o'rnatish hamda mustahkamlash bo'yicha turli

---

<sup>9</sup> Концепция внешнеполитического курса Туркменистана на 2017-2023 годы вызвала позитивный международный резонанс//<https://uk.tmembassy.gov.tm/en/news/21.07.2018>

<sup>10</sup> Wehrhaft. Resilient. Nachhaltig. Integrierte Sicherheit für Deutschland / Nationale Sicherheitsstrategie <https://www.nationalesicherheitsstrategie.de/National-Security-Strategy-EN.pdf>

<sup>11</sup> Gusseinov E. Germany-Central Asia summit: advantages and disadvantages of cooperation with Germany. // <https://cabar.asia/en/germany-central-asia-summit-advantages-and-disadvantages-of-cooperation-with-germany> - 06.10.2023.

<sup>12</sup> Rakhimov M. Central Asia in the Context of Western and Russian Interests. // L'Europe en Formation. – 2015. – №375(1). – P. 140-154. // <https://doi.org/10.3917/eufor.375.0140>.

<sup>13</sup> Izoh: ingliz tilida - Technical Assistance to the Commonwealth of Independent States (TACIS). Dasturning maqsadi — bu mamlakatlarga bozor iqtisodiyoti va demokratiyaga o'tishda ko'mak berish, islohotlarni amalga oshirish, institutlarni rivojlantirish va iqtisodiy rivojlanishga yordamlashish edi. TACIS dasturi rasman 2006 yilda yakunlangan. Keyin uning o'rniga yangi dasturlar, masalan, European Neighbourhood and Partnership Instrument (ENPI) kabi vositalar kiritilgan.

loyihalarni umumlashtiruvchi dasturdir. 1995-yilga kelib, TACIS dasturi doirasida Yevropaga davlatlararo neft va gaz transporti loyihasi (INOGATE) ishga tushirildi.

2007-yilda Yevropa Ittifoqida rahbarlikni egallagan Germaniya Markaziy Osiyoga nisbatan qiziqishlar va maqsadlarni belgilab beruvchi strategiyani qabul qilish tashabbusini ilgari surdi, bu YIning Markaziy Osiyo bilan munosabatlarni ratsionalizatsiya qilish uchun zarur yangi strategiyaga bo'lgan ehtiyoj bilan mos tushdi. 2007-yil 31-mayda YI Markaziy Osiyo bilan strategik hamkorlik to'g'risidagi birinchi dasturiy hujjatni – “Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo: Yangi hamkorlik strategiyasi”ni qabul qildi<sup>14</sup>. Germaniya mazkur strategiyani ishlab chiqishda faol ishtirok etdi. Jumladan, strategiyani tayyorlash uchun tashqi ishlar vaziri F.V.Shtaynmayer YI davlatlaridan birinchi tashqi ishlar vaziri sifatida 2006-yil oxirida Markaziy Osiyoning barcha beshta davlatiga tashrif buyurdi. 2007-yil mart oyida YI uchligi Ostona shahrida Markaziy Osiyo davlatlari tashqi ishlar vazirlari bilan strategiyani yakunlash uchun uchrashdi<sup>15</sup>. Ushbu hujjatda YIning mintaqadagi muhim manfaatlari sifatida “xavfsizlik va barqarorlikka intilish” hamda “inson huquqlariga rioya qilish” e'tirof etilgan<sup>16</sup>.

Biroq, 2017-yildan boshlab YIning Markaziy Osiyoga nisbatan qarashlari bir qator omillarga ko'ra o'zgara boshladi, jumladan: *birinchi*, Xitoyning “Bir makon, bir yo'l” dasturi, unga ko'ra, Markaziy Osiyo Osiyo va Yevropani bog'lashdagi hal qiluvchi ahamiyatga ega sifatida ko'rildi. Bu esa Yevropa siyosat va biznes doiralarning qiziqishini kuchaytirdi. *Ikkinchi*, O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning liberallashtirish siyosati va u Markaziy Osiyo bilan mintaqaviy hamkorlikka imkon berishiga umid uyg'otdi. *Uchinchi*, 2016-yilda Yevropa Ittifoqining tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha oliy vakili Frederik Mogerini tomonidan tashqi siyosat va xavfsizlik siyosati bo'yicha Yevropaning yangi global siyosatining taqdimotidan so'ng, YI o'zining barcha mintaqaviy tashqi siyosiy strategiyalarini qayta ko'rib chiqishni boshladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad ularni global miqyosda joriy qilingan yangi umumiy strategiyalarga moslashtirish hisoblanadi<sup>17</sup>.

2019-yil “Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo” strategiyasi yangilandi<sup>18</sup>. 2007-yilgi strategiya Germaniya tashabbusi bilan ishlab chiqilgan bo'lsa, 2019-yildagi strategiyani ishlab chiqishda ham Germaniya tashabbus ko'rsatdi, shuningdek, yangi strategiya a'zo davlatlar o'rtasidagi muhokamalar, YI va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi muzokaralarning bir necha bosqichi, mintaqadagi fuqarolik jamiyati institutlari bilan suhbatlar, Yevropadagi olimlar va tahlil markazlari bilan muhokamalarga asoslangan. Bundan tashqari, avvalgi

---

<sup>14</sup>The EU and Central Asia: Strategy for a New Partnership // Council of the European Union, 31 May 2007 - <https://data.consilium.europa.eu/doc/document/ST-10113-2007-INIT/en/pdf>

<sup>15</sup> Schmitz A. Merkel und Westerwelle besuchen Zentralasien // <https://www.dw.com/de/merkel-und-westerwelle-besuchen-zentralasien/a-5795149> - 15.07.2010.

<sup>16</sup> The Permanent Representatives Committee. The EU and Central Asia: Strategy for a New Partnership // Council of the European Union, 31 May 2007.

<sup>17</sup> Böttger K., Plottka J. A New Start for the EU Central Asia Policy in 2021? Current State, Developments and Perspectives for the Revision of the EU Central Asia Strategy // L'Europe en formation. – №385. – Summer 2018. – P. 45-60 // <https://shs.cairn.info/journal-l-europe-en-formation-2018-1-page-45?lang=en&tab=texte-integral>

<sup>18</sup> The EU and Central Asia: New Opportunities for a Stronger Partnership // Council of the European Union, 17 June 2019 - <https://www.consilium.europa.eu/media/39778/st10221-en19.pdf>

strategiyaga qaraganda, bu yangi hujjat alohida mintaqa davlatlarining voqeligi va talablariga ko‘proq yo‘naltirilgan<sup>19</sup>.

Germaniya mintaqa davlatlari bilan o‘zaro aloqalarni murakkab va mintaqaning kelajagi bo‘yicha turli pessimistik qarashlar avj olgan bir davrda o‘rnatdi. Uning uchun Markaziy Osiyo ustuvor hamkor emas, biroq e‘tibordan chetda qoldirilmasligi lozim bo‘lgan mintaqada hisoblanadi. Germaniya mintaqada “hayotiy” yoki “alohida” manfaatlarga ega bo‘lmasa-da, u mintaqani “muhim” deb baholagan.

Markaziy Osiyoning Germaniya uchun “muhim” ekanligi o‘sha davr nuqtayi nazaridan bir qancha sabablar bilan tushuntirilishi mumkin: 1) “qo‘shni hudud” sifatida baholanayotgan mintaqada islom fundamentalistlarining hokimiyat tepasiga kelish ehtimoli (Tojikiston misolida bu reallikka yaqin edi)<sup>20</sup>; 2) 1990-yillarning boshida mintaqada taxminan bir milliondan ortiq nemis yashagan. Garchi Markaziy Osiyoda nemislarga nisbatan hech qachon diskriminatsiya amalga oshirilmagan bo‘lsa-da, mintaqadagi nemis ozchiligining taqdiri Germaniyaning tashvishiga sabab bo‘lgan edi; 3) Germaniya rahbariyati Markaziy Osiyo davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining mustahkamlanishidan manfaatdor edi. Bu uning Germaniya sanoat ishlab chiqarishida zurrur bo‘lgan xomashyo zaxiralari xususan, gaz, neft va uran singari yana o‘nlab yerosti madanlarining mintaqada katta miqdorda mavjud ekanligi bilan ham bog‘liq bo‘lgan.

Shunday qilib, 1994-yil Federal Mudofaa vazirligining “Oq kitob”iga kiritilgan Sharqiy Yevropada barqarorlikni izlash haqidagi tezislarida Germaniya xavfsizlik siyosatining ustuvor vazifasi Yevropa integratsiyasini mustahkamlash va rivojlantirish hamda Ittifoqning Sharqiy Yevropa, Kavkaz, Markaziy Osiyo va O‘rta Yer dengizi mintaqasi mamlakatlari bilan faol qo‘shnichilik siyosati orqali Yevropa barqarorligi hududini mustahkamlashdir deb ko‘rsatish orqali u mintaqaning ahamiyatini e‘tirof etgan.

**“Germaniya-Markaziy Osiyo davlatlari munosabatlarida iqtisodiy hamkorlik va xavfsizlik masalasi”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobda o‘zaro hamkorlikning savdo-iqtisodiy omili va uning strategik ahamiyati; hamkorlik aloqalarining xavfsizlik paradigmasi; yangi geosiyosiy sharoitda Germaniya va Markaziy Osiyo davlatlari aloqalarining xususiyatlari: imkoniyatlar va to‘siqlar kabi masalalar o‘rganilgan.

Berlinning Markaziy Osiyoga nisbatan tashqi siyosati asosan uch yo‘nalishda amalga oshirilmoqda: Rossiya va Xitoy hukmronligiga qarshi kurashish hamda ularning mintaqada ustidan to‘liq nazoratini oldini olish; nemis mahsulotlari va xizmatlariga alohida e‘tibor qaratgan holda iqtisodiy taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlash; Afg‘oniston bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish, ya‘ni xavfsizlik masalasi.

Shakllanayotgan ko‘p qutbli dunyo tartibida Markaziy Osiyo davlatlari o‘z mavqeyiga ega bo‘lishda texnologik, sanoat va geosiyosiy mustaqilligini mustahkamlashlari kerak bo‘ladi. Bu Rossiya va Xitoydan uzilishni emas, balki

<sup>19</sup> Jos Boonstra, ‘New EU Strategy for Central Asia: First Reactions’, EUCAM, June 2019.

<sup>20</sup> См: Фрольцов, В. В. Постсоветские государства во внешней политике ФРГ (1991–2005) / В. В. Фрольцов. – Минск: БГУ, 2013. – 324 с.

shariklar doirasini kengaytirishni (almashtirish emas) anglatadi.<sup>21</sup> Aslida, har ikki davlat yaqin kelajakda mintaqa davlatlarining asosiy hamkorlari bo‘lib qoladi.

Moskva ta’sirini muvozanatlash uchun mintaqa davlatlari 1990-yillarning oxiridan beri Xitoy bilan hamkorlikni kengaytirishga intilmoqda. Xitoy ham bir tomondan, o‘zining G‘arbiy chegarasida (Shinjon provinsiyasi) barqarorlikni ta’minlash, boshqa tomondan esa “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham mintaqaga jiddiy e’tibor qaratmoqda. Xitoy kompaniyalari ta’sirining ortib borayotganligi, Xitoy texnologiyasi va tajribasidan tobora ko‘proq foydalanilayotganligi Markaziy Osiyo davlatlarini siyosiy jihatdan ham unga bog‘lab turadi.

Shu fonda mintaqa respublikalarining Germaniya va YI bilan munosabatlari yirik qo‘shnilariga nisbatan iqtisodiy va siyosiy muzokaralar olib borishda tanlov imkoniyatini ko‘rsatishga yo‘naltirilgandek ko‘rinadi. Mintaqadagi boshqa o‘yinchilar, avvalo Turkiya, Eron va Fors ko‘rfazi davlatlari, shuningdek, Hindiston va Janubiy Koreya bilan munosabatlar ham xuddi shu vazifani bajaradi. Markaziy Osiyo davlatlari uchun keng doiradagi shariklar bilan muloqotni qo‘llab-quvvatlash nafaqat iqtisodiy diversifikatsiyani yakunlash vositasi shuningdek mintaqada “ko‘p qutbli” vaziyatni shakllantirish imkoniyati hamdir. Biroq, bu Markaziy Osiyo Germaniya va Yevropa Ittifoqi bilan imtiyozli munosabatlarga intilmasligini ham anglatadi.

Germaniya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘zaro munosabatlarda iqtisodiy hamkorlik omili yetakchi hisoblanadi. Germaniya bilan ushbu sohadagi hamkorlikning asosiy afzalligi Germaniyadan va u orqali YIdan investitsiyalar, yangi texnologiyalar hamda modernizatsiyani jalb qilish imkoniyatlari hisoblanadi. Bu yo‘nalishdagi hamkorlikda mintaqa mamlakatlarining asosan xomashyo eksportchisi bo‘lib qolayotganligi, Germaniyaning esa mintaqaga nisbatan resurslar manbaasi sifatidagi qiziqishi saqlanib qolayotganligi hamkorlik aloqalaridagi nozik nuqta sifatida ko‘riladi.

2023-yil 29-30 sentabr kunlari Berlin shahriga tashrif doirasida Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilari Germaniya Kansleri va Prezidenti bilan o‘tkazilgan muzokaralarda, shuningdek, Germaniya iqtisodiyoti “Sharqiy qo‘mitasi”ning qo‘shma ishbilarmonlik uchrashuvida ham asosiy e’tibor savdo-iqtisodiy munosabatlarni kengaytirishga qaratilgan. Ishbilarmonlar uchrashuvida tomonlar Markaziy Osiyodagi ko‘p tomonlama loyihalarning “Berlin ro‘yxati”ni tuzishga kelishib olgan va u 2024-yilda to‘liq shakllantirilgan. 2023-yilga qadar Germaniya kompaniyalari mintaqaga jami o‘n milliard yevrodan ortiq sarmoya kiritib, 35 mingdan ortiq ish o‘rni yaratdi. Hozirda Germaniya kapitali ishtirokidagi 900 ga yaqin kompaniya mintaqada mahsulot ishlab chiqarmoqda va xizmat ko‘rsatmoqda<sup>22</sup>.

---

<sup>21</sup> Jacopo Maria Pepe, Andrea Schmitz. Deutsche Zentralasienpolitik nach der »Zeitenwende« <https://www.swp-berlin.org/publikation/> 27.06.2024, 8 Seiten

<sup>22</sup> Gusseinov E. Germany-Central Asia summit: advantages and disadvantages of cooperation with Germany. // <https://cabar.asia/en/germany-central-asia-summit-advantages-and-disadvantages-of-cooperation-with-germany> - 06.10.2023.

O‘zaro iqtisodiy munosabatlar dinamikasiga e‘tibor qaratisa, aslida ham, Germaniyaning mintaqaga e‘tibori an‘anaviy iqtisodiy manfaatlarga qaratilganligini<sup>23</sup> kuzatishimiz mumkin. Biroq bu iqtisodiy ishtirok cheklangan darajada qolib ketgan. Alohida davlatlar misolida ko‘rilganda, bu borada Germaniyaning iqtisodiy ishtiroki eng ko‘p Qozog‘istonda kuzatiladi, mintaqada xozirga qadar unga raqobatchi ikkinchi davlat mavjud emas.

2024-yilda Qozog‘iston va Germaniya o‘rtasidagi tovar aylanmasi 6 foizga ko‘payib, 3,9 milliard dollarga yetdi. Germaniyaga eksport hajmi deyarli ikki barobarga oshib, 1,1 milliard dollarga yetdi. 2024-yilning uch choragida Qozog‘iston iqtisodiyotiga kiritilgan nemis investitsiyalari hajmi 421,6 million dollarni tashkil etdi. Bu 2023-yilning shu davriga nisbatan 32,2 foizga kam. Shu bilan birga, Qozog‘istonning Germaniyaga kiritgan sarmoyasi 9,2 foizga o‘sib, 7,1 million dollarga yetdi<sup>24</sup>.

Mintaqada Germaniyaning ikkinchi yirik hamkori O‘zbekiston bo‘lib, Germaniya iqtisodiyotining CLAAS, Knauf, Gunter Papeburg, Linde Group, Falk-Porsche-Technik kabi yetakchi kompaniyalari O‘zbekistonda muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.<sup>25</sup> O‘zaro savdo aylanmasi 2024-yilda 1 mlrd yevrodan ortiq mablag‘ni tashkil etgan. 2025-yil birinchi choragida O‘zbekiston Germaniyaga 13 million yevrolik mahsulot eksport qildi va undan 89,9 million yevrolik mahsulot import qildi. 2024-yil fevraldan 2025-yil fevralgacha O‘zbekistonning Germaniyaga eksporti 6,79 million yevrodan 13 million yevrogacha ko‘tarilib, 6,23 million yevroga (91,8 foiz) oshdi. Shu davrda importi esa 75,8 million yevrodan 89,9 million yevrogacha ko‘tarilib, 14 million yevroga (18,5 foiz) o‘sd.<sup>26</sup> Shuni alohida ta’kidlash kerakki, 2024-yilda O‘zbekistonning YI bilan tovar aylanmasining eng katta ulushi Germaniya (19,1%) bilan amalga oshirilgan Ittifoq davlatlari orasida mamlakatimizga sarmoya kitiruvchilar orasida ham Germaniya 1,4 milliard dollarlik ulush bilan eng katta ko‘rsatkichga ega<sup>27</sup>.

Tomonlar o‘rtasida savdo iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda bir qator muammolar ham mavjud va ularning ayrimlari tadqiqot doirasida tahlil qilingan.

*Birinchi*, transport yo‘nalishi yoki logistik tarmoqlar muammosi. Transport yo‘nalishlari va boshqa ulanish tarmoqlari iqtisodiy ishtirokni kengaytirishda eng zaruriy shart hisoblanadi. Tomonlar uzoq muddatli reja asosida Markaziy Osiyo va Yevropani Kaspiy dengizi va Janubiy Kavkaz orqali bog‘laydigan 11 ming km uzunlikdagi O‘rta yo‘lakka – Transkaspiy xalqaro transport marshruti ustida ishlamoqda<sup>28</sup>. Transkaspiy yoki O‘rta yo‘lak Kaspiy dengizi orqali Osiyoni Yevropa bilan bog‘laydi. U Xitoy, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Gruziya, Turkiya va boshqa

<sup>23</sup> Klinnert A. Die Politik Deutschlands gegenüber Zentralasien. – Potsdam, 2015. – B. 19. – 30 s

<sup>24</sup> В Казахстане выросло число переселенцев из Германии //

<https://www.lada.kz/kazakhstan-news/135499-v-kazakhstane-vyroslo-chislo-pereselentsev-iz-germanii.html> - 04.03.2025

<sup>25</sup> O‘zbekiston Prezidenti Germaniyaning yetakchi kompaniya va banklari rahbarlari bilan uchrashdi, 03.05.2023 // <https://president.uz/oz/lists/view/6257>

<sup>26</sup> <https://oec.world/en/profile/bilateral-country/uzb/partner/deu>

<sup>27</sup> <https://www.newscentralasia.net/2025/04/02>

<sup>28</sup> Kenderdine T., Bucsky P. Middle Corridor—Policy Development and Trade Potential of the Trans-Caspian International Transport Route // ADBI Working Papers. <https://www.adb.org/publications/middle-corridor-policy-development-trade-potential> - May 2021

hududlar orqali o'tadi va Shimoliy koridorga muqobil hisoblanadi. YeTTBning Yevropa va Markaziy Osiyo o'rtasidagi barqaror transport aloqalari bo'yicha yakuniy hisobotida O'rta koridor iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda eng barqaror bo'g'in sifatida tan olingan<sup>29</sup>. O'rta yo'lak O'zbekiston iqtisodini rivojlantirish bo'yicha strategik rejalarda muhim ahamiyatga ega. 2025-yil yanvarda Prezident Sh.Mirziyoyevning infratuzilmani yangilash va savdoni tartibga solish bo'yicha besh yillik rejasida ham mazkur ulanish yo'lagining ahamiyati alohida ta'kidlangan va shu munosabat bilan O'zbekiston infratuzilmani yaratishga sarmoya kiritmoqda.<sup>30</sup>

*Ikkinchi*, savdo iqtisodiy munosablarni diversifikatsiyalash zaruriyati. Germaniya bilan savdo ayriboshlashida xomashyo ustunlik qilmoqda. Qozog'iston Prezidenti Q.Toqayev Germaniya va MOR iqtisodiy aloqalarini "texnologiya evaziga xomashyo" formulasi bo'yicha rivojlantirishni taklif qiladi. Amaliy jihatdan ham Germaniyada mintaqaning tabiiy tersurklariga ehtiyoji katta bo'lsa-da, va hozirga qadar savdoning katta qismini xomashyo tashkil qilsa-da, biroq bu borada Germaniya o'z o'ziga cheklovlar kiritishga intiladi. Buning sababi u biror davlat yoki mintaqaga bu borada bog'lanib qolishni istamaydi. Qolaversa, mintaqamamlakatlari ham nemis bozorlaridagi raqabatga dosh beroladigan tovarlar va xizmatlar taklif qilolmayotganligi sabab hozircha xomashyo bilan cheklanadi, bu esa savdo-iqtisodiy munosabatlarda bir tomnalamalikni keltirib chiqaradi.

O'zaro hamkorlik aloqalarining xavfsizlik paradigmasi o'zgaruvchan va Germaniyaning global xavfsizlik konsepsiyalari asosida shakllangan.

Nemis mutaxassislarining fikricha, dastlab Germaniyadan uzoqda bo'lib ko'ringan voqealar tez tarqalib, Federativ Respublika xavfsizligiga putur yetkazishi mumkin. Chunki, Germaniya global transport, energetika, axborot va moliya bozorlari infratuzilmasining bir qismi hisoblanadi. Germaniya birlashgandan so'ng tashqi siyosatda yangi yo'nalishlarga ega bo'ldi va xavfsizlik siyosatida tub o'zgarishlar yuz berdi. Germaniyaning xavfsizlik siyosati asoslaridagi o'zgarishlarni "Weisbuch – (Germaniyaning oq kitobi)" ning 1992, 2003, 2006 va eng so'nggi 2016-yilgi qismlarida ko'rish mumkin. So'nggi yillarda, ayniqsa, Ukraina inqirozidan so'ng, siyosiy va xavfsizlik strategiyalarini shakllantirishda energiya xavfsizligi va ISHID singari ekstremistik guruhlarining paydo bo'lishi kabi masalalar turli davlatlarning siyosiy elitasi tomonidan jiddiy ko'rib chiqildi. 2022-yilning 27-fevralida, urush boshlanganidan bir necha kun o'tib, kansler Olaf Shols o'z nutqida Germaniyaning xavfsizlik va tashqi siyosatidagi tub burilishni e'lon qildi. Nemischa "*Zeitenwende*" so'zi "davr o'zgarishi" yoki "burilish nuqtasi" degan ma'noni anglatadi. Mazkur burilish, birinchi navbatda, mudofaa, iqtisodiyot va energetika siyosatiga ta'sir ko'rsatdi<sup>31</sup>.

<sup>29</sup> Kamaldinova Sh. Uzbekistan Will Become an Energy Supplier for Germany // <https://bipr.jhu.edu/BlogArticles/15-Uzbekistan-Will-Become-an-Energy-Supplier-for-Germany.cfm> (murojaat vaqti – 1.03.2025)

<sup>30</sup> Robert M. Cutler. How The Middle Corridor Is a Game-Changer for Uzbekistan. // <https://timesca.com/how-the-middle-corridor-is-a-game-changer-for-uzbekistan/> - 4 March 2025.

<sup>31</sup> . Гусейнов Э. Саммит «Германия -Центральная Азия»: преимущества и недостатки сотрудничества с ФРГ / Central Asian Bureau for Analytical Reporting — региональная платформа IWPR в Центральной Азии / <https://cabar.asia/ru/sammit-germaniya-tsentralnaya-aziya-preimushhestva-i-nedostatki-sotrudnichestva-s-frg>

Xavfsizlik sohasidagi hamkorlikda uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va radikalizmga qarshi kurashish Markaziy Osiyo davlatlari va Germaniya aloqalarida doimiy ravishda ustuvor yo‘nalish bo‘lib kelgan. Bu borada bir qator hukumatlararo shartnomalar imzolangan. Ikki tomonlama asosiy bitimlardan biri 2009-yilda imzolangan Germaniya Federativ Respublikasi Hukumati va O‘zbekiston Respublikasi Hukumati o‘rtasidagi uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa turdagi jinoiy faoliyatga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi Bitimdir. Mazkur bitim ikki davlat vakolatli organlari o‘rtasida axborot almashishni, shuningdek, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka oid jinoyatlarni tergov qilish hamda oldini olish bo‘yicha hamkorlikni nazarda tutadi. Shunga o‘xshash bitimlar Germaniya va Qozog‘iston (2010), Qirg‘iziston (2011) hamda Tojikiston (2012) kabi Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari bilan ham tuzilgan<sup>32</sup>. Kelishuvlar qo‘shma aksilterror operatsiyalari o‘tkazish, razvedka ma’lumotlarini almashish va terrorchilik faoliyatiga aloqador shaxslarni ekstradisiya qilish uchun huquqiy asos yaratadi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, Germaniya bilan mintaqada terrorizmga qarshi kurash yo‘lida hamkorlikka ta’sir etuvchi qator omillar mavjud:

*birinchidan*, siyosiy omillardan biri Germaniya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi siyosiy tizimlar va xavfsizlik masalalariga yondashuvlardagi farqdir. Germaniya rivojlangan demokratiya bo‘lib, qaror topgan institutlarga va qonun ustuvorligi tamoyillariga sodiq, Markaziy Osiyo mamlakatlari esa hokimiyatning qat’iy vertikal tizimiga va fuqarolik jamiyati uchun cheklangan imkoniyatlarga ega bo‘lgan byurokratik rejimlarni ifodalaydi. Bu farqlar to‘laqonli muloqotni yo‘lga qo‘yish va terrorizmga qarshi kurashda kelishilgan yondashuvlarni ishlab chiqishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda<sup>33</sup>;

*ikkinchidan*, mintaqa mamlakatlarining geosiyosiy manfaatlari va tashqi siyosatdagi ustuvor yo‘nalishlaridir. Markaziy Osiyoning ba’zi davlatlari (Qozog‘iston va O‘zbekiston) tashqi aloqalarni diversifikatsiya qilish va turli xalqaro o‘yinchi bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga intilmoqda, boshqalari (Tojikiston va Qirg‘iziston) esa an’anaviy ravishda Rossiya va Xitoy bilan hamkorlikka e’tibor qaratmoqda. Ushbu tafovutlar alohida mamlakatlarning Germaniya bilan xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdorlik darajasiga ta’sir qiladi;

*uchinchidan*, chegara xavfsizligini mustahkamlash bo‘yicha nemis loyihalari. Germaniyaning mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha tashqi siyosiy strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan tashabbuslari chegara infratuzilmasini texnik modernizatsiya qilish, malakali kadrlar tayyorlash va chegara nazorati sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirishni o‘z ichiga olgan ko‘p darajali yondashuv bilan ajralib turadi. Germaniyaning faol ishtiroki va moliyaviy

---

<sup>32</sup> Мальшева Д. Б. Европейский союз в Центральной Азии //Россия и новые государства Евразии. – 2018. – №. 2. – С. 57.

<sup>33</sup> Николаевна Г.А., Кодебаева А., Ребровская Е.Д. Сотрудничество ФРГ и стран Центральной Азии в борьбе с терроризмом. // Постсоветские исследования. – 2024. – Том 7. – № 67 (6). – С.633.

ko'magida amalga oshirilayotgan "Markaziy Osiyoda chegaralarni integratsiyalashgan boshqarish" (BOMCA) dasturi buning yaqqol misolidir<sup>34</sup>.

Yevropa Ittifoqi darajasida Germaniya tomonidan ilgari surilgan muhim tashabbuslardan biri 2019-yilda Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha yangilangan strategiyasini ishlab chiqishda nemis diplomatlari va ekspertlari *xavfsizlik va terrorizmga qarshi kurash masalalariga bag'ishlangan bo'limni* shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Germaniya tomonining sa'y-harakatlari tufayli Strategiyaga Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo mamlakatlari huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligi, shuningdek, radikallashuv va zo'ravon ekstremizmning oldini olish sohasida ilg'or tajriba almashish muhimligi to'g'risidagi qoidalar kiritildi<sup>35</sup>.

Tahlillar xavfsizlik sohasidagi hamkorlik jarayonida tomonlar duch keladigan bir qator *muammo va qiyinchiliklarni* ham aniqladi va ular quyidagilar:

- siyosiy tizimlar va xavfsizlik masalalariga yondashuvlardagi farqlar;
- qonunchilik va huquqiy me'yorlardagi tafovutlar;
- geosiyosiy manfaatlar va iqtisodiy omillarning ta'siri;
- Markaziy Osiyo mamlakatlarining terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi cheklangan resurslari va salohiyati.

Germaniya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi terrorizmga qarshi kurash sohasidagi hamkorlik nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlik uchun ham strategik ahamiyatga ega. Ushbu hamkorlikning muvaffaqiyati mamlakatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga, iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi, shuningdek, xalqaro hamjamiyatning terrorizmning barcha shakl va ko'rinishlariga qarshi kurashish bo'yicha umumiy sa'y-harakatlariga muhim hissa qo'shadi.

*Germaniya Markaziy Osiyo davlatlari aloqalarining xususiyatlari: imkoniyatlar va to'siqlar masalasiga bag'ishlangan paragarfda* asosiy e'tibor Germaniya – Markaziy Osiyo muloqot platformasiga (5+1) qaratildi.

2023-yil sentabr oyida Berlin shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari va Germaniya sammitida MOning Germaniya uchun yangi ahamiyatiga urg'u berildi. Sammit so'nggida qabul qilingan qo'shma deklaratsiya bilan mamlakatlar o'zaro hamkorlikning yangi darajasi - strategik mintaqaviy sheriklikni yo'lga qo'yishga kelishdi. Bu Germaniyaning yirik mintaqa bilan birinchi strategik hamkorligi bo'ladi va u *to'rtta harakat yo'nalishiga* e'tibor qaratadi:

- 1) iqtisodiyot, energetika, tabiiy resurslar;
- 2) mintaqaviy hamkorlik va barqarorlik;
- 3) atrof-muhit va iqlim;
- 4) fuqarolik jamiyati institutlari bilan aloqalar<sup>36</sup>.

---

<sup>34</sup> Gartland J. The Border Management Programme in Central Asia: Explaining the European Union's Choice of Implementing Partners. Bruges Regional Integration & Global Governance Papers 3/2014. – 2014. – P. 117.

<sup>35</sup> Olga A. Spaier. Germany's Influence on EU Foreign Policy: The Case of the EU Strategy for Central Asia // Understanding European Neighbourhood Policies: Concepts, Actors, Perceptions. – Baden-Baden: Nomos Verlagsgesellschaft, 2012. – P.270.

<sup>36</sup> Huterer M., Pepe M.J., Schmitz A. German Central Asia Policy after the "Zeitenwende" Challenges and Opportunities for a Strategic Partnership / SWP Comment 35. August 2024 // [https://www.swp-berlin.org/publications/products/comments/2024C35\\_Central\\_Asia\\_Policy.pdf](https://www.swp-berlin.org/publications/products/comments/2024C35_Central_Asia_Policy.pdf)

Germaniyaning mintaqa mamlakatlari bilan strategik hamkorligi 2024-yil sentabr oyida Ostona shahrida o'tkazilgan "5+1" formatidagi sammitda, shuningdek, sammit oldidan Federal kanslerning O'zbekiston va Qozog'istonga rasmiy tashriflari bilan yanada mustahkamlangan.

Germaniyaning mintaqa bo'yicha siyosati ikki tomonlama hamkorlikdan tashqari Yevropa Ittifoqi darajasidagi munosabatlarni mustahkamlash bo'yicha jadal sa'y-harakatlarga ham qaratilgan. 2025-yilning 3-4 aprel kunlari Samarqand shahrida "Kelajakka investisiyalar" shiori ostida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti, shubhasiz, hozirgi zamon xalqaro munosabatlar tizimida katta o'zgarishlar debochasi sifatida tavsiflanishi, shuningdek tomonlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalarini real voqeliklar asosida yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqqanligi bilan ham ahamiyatlidir.

Biroq, erishilgan barcha yutuqlarga qaramay, ko'plab *to'siqlar* mintaqaviy hamkorlikka xalaqit berishda davom etmoqda. Buni umumiy holatda quydagicha ifodalash mumkin: Bir tomondan, Germaniyaning xavfsizlik va iqtisodiy sohalarda asosiy hamkorlari sifatida Yevropa, Amerika va Yaqin Sharq mintaqasi davlatlari ustuvor mavqega ega hisoblanadi. Boshqa tomondan, Markaziy Osiyo besh mamlakatining iqtisodiy rivojlanishi va resurs zaxiralari bo'yicha juda noteng ekanligi, suvdan foydalanishdagi qarama-qarshi manfaatlar, turli xil bojxona tizimlari tufayli mavjud bo'lgan aloqa muammolari va savdo to'siqlari kiradi. Ushbu omillar mintaqaviy qiymat zanjirlarini rivojlantirish va ularning global integratsiyasiga, ayniqsa, energetika, suv va transport kabi muhim sohalarda to'sqinlik qilmoqda.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Germaniyaning Markaziy Osiyo siyosatining madaniy-gumanitar jihatlari va "yumshoq kuch"ni qo'llash amaliyoti"** deb nomlangan bo'lib, unda Germaniya va Markaziy Osiyo davlatlari aloqalarida "yumshoq kuch" siyosatini qo'llash vositalari va maqsadlari, Germaniya siyosiy jamg'armalarning mintaqada "yumshoq kuch" siyosatini amalga oshiruvchi institutlar sifatida kabi masalalar o'rganilgan, shuningdek mazkur bobda O'zbekiston va Germaniya aloqalarining istiqbolli yo'nalishlari ham baholangan.

Markaziy Osiyoda Germaniya "yumshoq kuch" siyosatining quyidagi jihatlari ajratib qo'rsatish mumkin:

*Birinchi yo'nalish* va dastlabki maqsadi etnik ozchilik hisoblanuvchi nemis-ruslarini (etnik nemislar)ni har tomonlama – ijtimoiy madaniy va siyosiy iqtisodiy jihatdan qo'llab quvvatlashga yo'naltirilgan edi. Mintaqadagi etnik nemislarning eng katta jamoasi Qozog'istonda yashaydi. Bugungi kunda Qozog'istondagi nemis ozchiligi qozoq jamiyatiga to'liq integratsiyalashgan. Hozirgi paytda ularga nisbatan tizimli kamsitishlar mavjud emasligi aniqlangan. Mamlakatda ularning soni taxminan 180-220 ming nafarni tashkil qiladi. Qirg'izistonda 1989-yillarga qadar 100 mingga yaqin etnik nemislar yashagan bo'lsa, hozirda (2024-yil hisobotlarida) ularning soni 8.200 nafarni tashkil qiladi. O'zbekistonda esa nemis millati vakillari 150 yildan ko'proq vaqt oldin paydo bo'lgan. Muhojirlar O'zbekistonga nafaqat nemis tili va madaniy xususiyatlarini olib kelishdi, balki nemislar O'zbekiston hayotining ko'plab sohasida - fan, madaniyat, qishloq xo'jaligi va sanoatda faol ishtirok etdilar. Hozirgi O'zbekiston

hududiga dastlab kelib oʻrnashgan nemislar asosan Rossiyaning Boltiqboʻyi guberniyalaridan kelgan. Biroq, oʻzbek nemislarining aksariyati 1941-yilda Volgaboʻyidan Oʻrta Osiyoga majburiy koʻchirilgan nemis millatiga mansub sovet fuqarolarining avlodlaridir. Oʻzbekistonda nemis millatiga mansub 8 mingga yaqin fuqaro yashaydi. 1980-yillarning oxirida bu koʻrsatkich besh barobar yuqori edi. Hozirgi kunda Fargʻona viloyatida 2400 ga yaqin, Toshkent viloyatida 3000, Buxoroda 1200 va Samarqand viloyatida 1000 nafar etnik nemis istiqomat qilmoqda<sup>37</sup>.

*Ikkinchi yoʻnalish*, Germaniyaning Markaziy Osiyo davlatlarida “yumshoq kuch” siyosatining muhim tarmogʻi nemis tili va madaniyatini yoyishdan iborat. Bu borada uning imkoniyatlari keng emas, biroq sovet davrida mintaqa mamlakatlarida nemis tilini oʻrgatish anʼanalari shakllanganligi hisobidan bugungi kunda ham mintaqa mamlakatlari oʻrta va oliy taʼlim tizimida nemis tilini oʻrgatish ishlarini qisman boʻlsada muvaffaqiyatli yoʻlga qoʻyishga erishgan.

Mintaqada nemis tilini oʻrganuvchilarning eng katta jamoasi Oʻzbekistonda boʻlib, hozirgi kunda mamlakatimizda 1,6 mingdan koʻproq maktabda 300 mingdan ortiq oʻquvchi-yoshlar nemis tilini oʻrganmoqda. 10 ta maktabda nemis tili chuqurlashtirib oʻrgatiladi. Bundan tashqari, oliy oʻquv yurtlarida qariyb 19 ming talaba ham nemis tilini oʻzlashtirmoqda<sup>38</sup>. Germaniyada Gyote-Instituti va Germaniya Akademik almashinuv xizmati (DAAD) orqali nemis tili va til orqali nemis madaniyatining targʻiboti amalga oshiriladi. Markaziy Osiyoda ham Gyote-Institutining ikkita (Oʻzbekiston va Qozogʻistonda) mintaqaviy boʻlinmasi faoliyat olib boradi. Qozogʻistonda Germaniyaning tashqi madaniy va taʼlim siyosatining vositachilari sifatida Gyote instituti hamda Xorijdagi maktablar markaziy boshqarmasi faoliyat yuritib kelmoqda. Qozogʻistonning 15 ta maktabi PASCh nemis hamkor maktablarining jahon tarmogʻiga kiradi. Germaniya akademik almashinuv xizmati (DAAD) har yili taxminan 90 nafar qozogʻistonlik talabaga Germaniyada taʼlim olish imkoniyatini taqdim etadi.

Germaniyaning Markaziy Osiyo mintaqasida til, taʼlim va fan yoʻnalishida faoliyat olib boruvchi tashkilotlaridan tashqari fuqarolik jamiyati va demokratik institutlar faoliyatini qoʻllab-quvvatlash yoʻnalishida ishlayotgan siyosiy jamgʻarmalari ham mintaqada nemis “yumshoq kuch” siyosatini amalga oshirishda asosiy ishtirokchilardan hisoblanadi.

Germaniya siyosiy jamgʻarmalari Markaziy Osiyoda yigirma yildan ortiq vaqtdan beri faoliyat yuritmoqda. Hozirgi kunda eng faol boʻlgan oltita nemis siyosiy jamgʻarmalaridan faqat uchtasi: Konrad Adenauer jamgʻarmasi, Fridrix Ebert jamgʻarmasi va Hans Zaydel jamgʻarmalari mintaqa respublikalarida bitta yoki bir nechta boʻlimlar bilan faoliyat olib boradi. Fridrix Naumann va Roza Lyuksemburg jamgʻarmalarining loyihalari Moskvadagi tegishli mintaqaviy ofislar

---

<sup>37</sup> Mironowa E. The Cultural Center of Germans in Uzbekistan "Wiedergeburt". Kulturzentrum der Deutschen Uzbekistans e.V. „Wiedergeburt“ // Federal Union of European Nationalities - <https://fuen.org/en/members/The-Cultural-Center-of-Germans-in-Uzbekistan-Wiedergeburt> - (murojaat sanasi: 1.03.2025)

<sup>38</sup> Асроров У. Ўзбекистон – Германия: ҳамкорликнинг янги даври // <https://yuz.uz/news/ozbekiston--germaniya-hamkorlikning-yangi-davri> 23 октябрь 2021

tomonidan nazorat qilinadi, Genrix Byoll jamg'armasi hozirda mintaqada o'z faoliyatini amalga oshirmayapti.

Mazkur tadqiqot ishida Markaziy Osiyoda uzoq yillar davomida va keng qamrovda faoliyat olib borayotgan ikki jamg'arma faoliyati ko'rib chiqildi.

Ulardan birinchisi Konrad Adenauer Jamg'armasi (KAJ). KAJ Markaziy Osiyoda Ostona va Toshkentdagi mintaqaviy markazlari orqali 1994 yildan e'tiboran faoliyat yuritadi. Jamg'armaning mintaqadagi faoliyati ta'lim, ayniqsa siyosiy ta'lim, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish hamda parlament institutlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarini mustahkamlashga qaratilgan<sup>39</sup>.

Mintaqa davlatlarida faol ishlayotgan yana bir nemis jamg'armasi bu Fridrix Ebert jamg'armasi bo'lib, u nafaqat Germaniyada balki butun dunyoda ham o'z faoliyat turi bo'yicha dastlabkilardan hisoblanadi. F.Ebert jamg'armasi Markaziy Osiyoning Turkmanistondan tashqari to'rtta respublikasida faoliyat yuritadi va mintaqada Olmaota, Ostona, Bishkek, Dushanbe va Toshkentda o'z byurolari orqali ish olib boradi.

O'zbekistonda F.Ebert jamg'armasi 1997-yildan faoliyat ko'rsata boshlagan. Jamg'arma 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga o'zining munosib hissasini qo'shgan. Xususan, davlat va nodavlat tuzilmalarining asosiy manfaatdor tomonlari bilan hamkorlik qilish, shuningdek, ijtimoiy rivojlanishning ko'p qirrali sohalarida ishlaydigan mutaxassislarining tajribasini jalb qilish orqali Taraqqiyot strategiyasini qo'llab-quvvatlagan<sup>40</sup>.

Tadqiqot davomidagi tahlil shuni ko'rsatdiki, F.Ebert jamg'armasi ham, Konrad Adenauer jamg'armasi ham fuqarolik jamiyatiga demokratlashtirish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega rol berishadi va qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolik jamiyatining ishtirokini kuchaytirishga intiladilar. Jamg'armalar mintaqada me'yorlarni tarqatuvchilar sifatida faoliyat yuritib, o'z tadbirlari va seminarlari orqali (2003-2024 yillarda jami 870 ta tadbir tashkil qilgan yoki ularga hamkorlik qilgan)<sup>41</sup> fuqarolik jamiyati va OAVning roli, shuningdek, aholining ma'lum guruhlari (masalan, yoshlar va ayollar) ega bo'lishi kerak bo'lgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy huquqlar haqidagi o'xshash tasavvurlar va tushunchalarni yoyishga hissa qo'shadilar. E'tiborli jihati shundaki, Germaniya tajribasi va ilg'or amaliyoti har ikkala jamg'arma tomonidan ham tayanch nuqta va na'muna sifatida qo'llaniladi.

Germaniya siyosiy jamg'armalarining mintaqadagi faoliyatiga doir tadqiqot bo'yicha quyidagicha xulosalar qilish mumkin: *Birinchi*, Germaniya siyosiy jamg'armalarining mintaqadagi faoliyati o'zaro manfaatli bo'lib, faqat demokratlashtirish va inson huquqlari masalalari bilan cheklanmayotganligi diqqatga sazovor. *Ikkinchi*, Germaniya Markaziy Osiyo fuqarolik jamiyati va demokratik institutlari faoliyati samaradorligini oshirishda Germaniya tajribasi va ilg'or amaliyotini tayanch nuqta va na'muna sifatida qo'llaydi, biroq mahalliy

<sup>39</sup> Konrad-Adenauer-Stiftung. Über uns // <https://www.kas.de/de/ueber-uns>

<sup>40</sup> Содействие развитию Узбекистана// «Экономический вестник Узбекистана» 2/2021. <https://evu.uz/uz/intervyu/sodejstvie-razvitiyu-uzbekistana.html>

<sup>41</sup> <https://www.kas.de/ru/web/zentralasien/veranstaltungen?>

aholining turmush tarzi, siyosiy madaniyati va boshqaruvdagi o'ziga xos elementlarni ham hisobga olishga tayyor. *Uchinchi*, Germaniya mintaqaning geosiyosiy jihatdan muhim mintaqadagi o'rni va ahamiyatini tan oladi hamda ko'plab sohalar qatori atrof-muhitni muhofaza qilish, demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab quvvatlash kabi dolzarb masalalar bo'yicha mintaqa yetakchilari bilan muntazam aloqalarni davom ettirish niyatida.

Germaniyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi "yumshoq kuch" siyosati tadqiqiga bag'ishlangan mazkur bobda tadqiqotning yakunlovchi tahliliy xulosasi sifatida O'zbekiston va Germaniya hamkorlik aloqalarining istiqbollari masalasi ham ko'rib chiqilgan. O'rganishlar natijasiga ko'ra, O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi aloqalarining istiqbolli yo'nalishlari sifatida quyidagilarni tahlil qilish mumkin, degan xulosaga kelingan.

*Birinchi istiqbolli yo'nalish*, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish sohasida hamkorlik. Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda chuqur ma'muriy islohotlar amalga oshirilib, davlat boshqaruvini samarali faoliyatini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston ma'muriy islohotlarni samarali amalga oshirish, inson huquqi va erkinligini ta'minlashda sud hokimiyatini kuchaytirish bo'yicha Germaniya tajribasini o'rganishdan manfaatdor. O'zbekistonda sud-huquq tizimida zamonaviy xalqaro tajribani inobatga olgan holda amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekiston va Germaniya sud, huquq organlari va ixtisoslashgan muassasalari o'rtasidagi samarali hamkorlik uchun keng imkoniyatlarni ochmoqda.

*Ikkinchi istiqbolli yo'nalish*, qayta tiklanadigan energetika va "yashil iqtisodiyot" sohasida hamkorlik.

Modernizatsiya tufayli Germaniya firmalari O'zbekiston energetika sohasiga katta qiziqish bildirmoqda. So'nggi yillarda Germaniya investisiyalari hajmi 4 milliard dollarni tashkil etdi, qo'shma korxonalar soni ikki baravarga oshdi. O'zbekistonda CLAAS, Knauf, Gunter Papenburg, Linde Group, va Falk-Porsche-Technik kabi Germaniya iqtisodiyoti yetakchilari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. 2023 yil may oyida bo'lib o'tgan qo'shma biznes-forumda Germaniyaning Deutsche Bank, Commerzbank, KfW, va Landesbank kabi yirik banklari "yashil" energetika, metallurgiya, suv ta'minoti, avtomobilsozlik va elektrotexnika sanoati kabi sohalarda 9 milliard dollarlik yirik loyihalarni moliyalashtirishga kelishib olishdi<sup>42</sup>.

*Uchinchi istiqbolli soha*, migratsiya va mehnat bozori harakatchanligi. 2025-yil 7-aprelda O'zbekiston va Germaniya o'rtasida imzolangan memorandum Germaniya iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida o'zbekistonlik ishchilar uchun kasbiy ta'lim va qonuniy harakatlanish yo'llarini ko'zda tutgan mehnat migratsiyasining tizimli asosini yaratadi. Memorandum 2024-yilgi Migratsiya va harakatlanish bo'yicha keng qamrovli hamkorlik to'g'risidagi bitimni amalga oshiradi hamda Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bilan aloqalarni mustahkamlash bo'yicha keng qamrovli strategiyasiga mos keladi. Tashabbus

---

<sup>42</sup> Kamaldinova Sh. Uzbekistan Will Become an Energy Supplier for Germany // <https://bipr.jhu.edu/BlogArticles/15-Uzbekistan-Will-Become-an-Energy-Supplier-for-Germany.cfm> (murojaat vaqti – 1.03.2025)

Yevropa Ittifoqining migratsiya boshqaruvidan yumshoq kuch va mintaqaviy ta'sir vositasi sifatida foydalanishini aks ettiradi<sup>43</sup>. Shuningdek mazkur kelishuv O'zbekistonning mehnat bozorlariga bir tomonlama bog'liq bo'lib qolayotganligi ortidan kelib chiqadigan tashqi bosimni yengillashtirish va kelajakda bartaraf qilish kabi tashqi siyosat bilan bog'liq muammolarini, shuningdek xorijiy tajribaga ega malakali ishchi xizmatchilar sonini ko'paytirish orqali milliy iqtisodiyotni modernezatsiya qilishdagi xodimlar tarkibi masalasini samarali hal qilishda ham alohida ahamiyatga ega.

*To'rtinchi istiqbolli yo'nalish*, turizm sohasida hamkorlik. O'zbekistonga xorijiy sayyohlar tashrifi uchun tartib-qoidalarni soddalashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tufayli Germaniyadan mamlakatimizga kelayotgan sayyohlar soni tez sur'atlar bilan oshmoqda. 2019-yil 15-yanvardan boshlab O'zbekistonga 30 kungacha turistik maqsadlarda keladigan Germaniya va boshqa bir qator davlatlar fuqarolari uchun vizasiz rejimning joriy etilishi germaniyalik sayyohlar sonining sezilarli darajada ko'payishiga olib keldi.

## XULOSA

Bugun Markaziy Osiyo mintaqaviy integratsiya va hamkorlikning eng faol fazasiga kirgan. O'zining yaqin tarixida tarqoq bo'lgan, uzoq muddat chegara nizolari va hal etilmagan muammolar ichida qolgan mintqa davlatlari hozirda rasmiy Toshkent tashabbusi va sa'y-harakatlari natijasida juda samarali va qat'iyat bilan integratsiyalashmoqda. Bu esa o'z o'rnida uning tashqi siyosatidagi manfaatlar mushtarakligi va umumiy qiziqishlarning shakllanishiga, eng muhimi tashqarida ham mintqa davlatlarini yaxlit subyekt sifatida qabul qilinishiga ham sabab bo'lmoqda.

2019-yil mintaqaga nisbatan YIning yangi strategiyasini qabul qilinishi va unga qadar bo'lgan davrda: O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning mintaqaviy tashqi siyosati natijalari (2016-yildan); Kaspiy huquqiy maqomining belgilanishi (2018) kabilar YI, jumladan Germaniya - Markaziy Osiyo davlatlari mintaqalararo hamkorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi.

Germaniya Federativ Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro aloqalarining rivojlanish jarayonlarini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Germaniyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalari mustaqillikdan keyingi davrda o'zaro manfaat va ishonch tamoyillariga asoslangan holda rivojlanib kelmoqda hamda deyarli ziddiyatlarsiz kechmoqda. Mintaqaga oid nemis siyosatida ikki paralell yo'nalishda ishlab chiqilganini kuztish mumkin: YI doirasida va mustaqil tashqi siyosat shaklida. Shu sababli Yevropa Ittifoqining mintaqaga nisbatan ijobiy imiji shakllanishida Germaniyaning alohida o'rni bor. YIning Markaziy Osiyo bo'yicha 2007 va 2019-yillardagi strategiyalarining qabul qilinishida Germaniya faoliyati va tashabbusi muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>43</sup> Meloni M. How the Uzbekistan-Germany Labour Migration Agreement Affects the EU-Central Asia Partnership. // SpecialEurasia. <https://www.specialeurasia.com/2025/04/12/uzbekistan-germany-labour/> - April 12, 2025

2. Germaniya tashqi siyosatining Markaziy Osiyo yo‘nalishi YIning umumiy siyosiy yo‘nalishiga uyg‘un bo‘lib, uning asosiy vazifalaridan biri mintaqa bilan xavfsizlik, iqtisodiy va energiya ta‘minoti sohasida hamkorlikni kuchaytirishdir. Bugungi kunda Germaniya va mintaqa davlatlari o‘rtasida hamkorlikning keng huquqiy-shartnomaviy asoslari yaratilgan. Biroq YI davlatlararo tuzulma sifatida o‘zining yagona tashqi siyosiy kun tartibiga ega emasligi va uning a‘zolari o‘rtasida tashqi siyosat ta‘moyillarining har xil ekanligi Germaniyaning mintaqa bo‘yicha YI siyosatini faollashtirish tashabbuslariga to‘siq bo‘lib turadi.

3. Germaniya-Markaziy Osiyo davlatlari savdo-iqtisodiy munosabatlari tahlili tovar ayirboshlash nomenklaturasining asta-sekin kengayib borayotganini ko‘rsatmoqda. Biroq Germaniya – Markaziy Osiyo davlatlari savdo-iqtisodiy munosabatlari hozirda ham asosan “texnologiya evaziga xomashyo” formulasi asosida shakllanmoqda. Shunga qaramasdan, iqtisodiy hamkorlik salohiyati katta bo‘lib, Markaziy Osiyo davlatlari Germaniya sarmoyasi yordamida iqtisodiy diversifikatsiyani amalga oshirishi mumkin.

4. Germaniyaning mintaqadagi manfaatlari geosiyosiy yo‘nalishdan geoiqtisodiy maqsadlarga qarab so‘ngi yillarda o‘zgarimoqda va mustahkamlanmoqda. Infratuzilma, energetika, sanoat modernizatsiyasi sohalarida sheriklik istiqbolli hisoblanadi. Mintaqada iqtisod va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishda Germaniya va YI tajribasi, texnologiyalari va investitsiyalari katta rol o‘ynaydi. Investitsiyaviy hamkorlik intensiv bo‘lmasa-da, sheriklikni chuqurlashtirish uchun obyektiv shart-sharoitlar mavjud. So‘nggi yillarda nemis biznesi mintaqaga ehtiyotkorlik bilan kirib kelmoqda.

5. Jahon va Yevroosiyo makonidagi zamonaviy geosiyosiy keskinliklarga qaramay, xususan, Germaniya va YI Yevroosiyo integratsiyasidan manfaatdor ekanligini ta‘kidlash mumkin. Yevroosiyo hududida so‘nggi yillarda kuzatilgan keskinlik va harbiy to‘qnashuvlar Germaniyaning Markaziy Osiyo uchun asosiy iqtisodiy va xavfsizlik bo‘yicha hamkori sifatidagi o‘rnini mustahkamladi. Berlin infratuzilma va energetika loyihalariga sarmoya kiritish orqali o‘zini Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi hamda Rossiyaning mintaqadagi an‘anaviy ta‘siriga qarshi muvozanat sifatida samarali namoyon qilmoqda. Biroq tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, Germaniya mintaqada Xitoy va Rossiya manfaatlarini inkor qilmaydi va ularning har tomonlama ustun mavqaida ekanligi bilan hisoblashadi. Geosiyosiy raqobatga kirishmaslikka intiladi. Shu bilan birga, mintaqa mamlakatlarning taraqqiyotida ularning har ikkisi bilan o‘zaro tenglik va hurmat tamoyillariga asoslangan diplomatik aloqalar va savdo-iqtisodiy munosabatlarni saqlash muhim ekanligini ham ta‘kidlab keladi.

6. Berlin bilan hamkorlik Markaziy Osiyo davlatlariga Ukraina mojarosi va undan kelib chiqqan G‘arb-Rossiya qarama-qarshiligi ta‘sirida shakllangan hozirgi Yevroosiyo geosiyosiy vaziyatidan o‘tish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlari Germaniya, G‘arb tomonidan taklif etilayotgan mintaqada Xitoy va Rossiya ta‘sirini cheklash borasidagi takliflariga ehtiyotkorlik bilan yondashmoqda, an‘anaviy hamkorlaridan yuz o‘girmasligini ham namoyon etmoqda. Markaziy Osiyoning xalqaro maydonda tobora faol aktorga aylanib borayotganini, global kuchlar bilan o‘ziga qulay sheriklik aloqalarini

o‘rnatish uchun o‘zining strategik joylashuvi va resurslaridan foydalanayotganini ko‘rsatmoqda.

7. Afg‘onistondagi vaziyat Germaniya va YI uchun mintaqa xavfsizligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli, Germaniya Afg‘onistonda gumanitar yordam va xavfsizlikni ta‘minlashda faol qatnashmoqda. 2008-yil 23-sentyabrdagi Federal hukumatning Afg‘oniston bo‘yicha konsepsiyasida ikki tomonlama munosabatlarning aniq tamoyillari ko‘rsatib o‘tilgan. Shu sababli Germaniya “Tolibon 2.0” hokimiyatini tan olmagan holda Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish uchun bilvosita muloqotlar, gumanitar yordam va Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik orqali harakat qilmoqda. BOMCA kabi dasturlar, migratsiya masalalarini hal qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash orqali Germaniya Afg‘onistondan keladigan salbiy ta‘sirlarni kamaytirishga va mintaqada xavfsizlikni mustahkamlashga intiladi.

8. Germaniyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro aloqalarning dastlabki bosqichida madaniy gumanitar aloqalar ikki tomonlama va mintaqalararo munosabatlarda asos bo‘lib xizmat qildi. Germaniyaning Markaziy Osiyo bilan madaniy aloqalarini rivojlantirishning eng muhim omili va o‘ziga xos “ko‘prik” vazifasini bajaradigan nemis diasporalarining mavjudligidir. Tomonlarning madaniy hamkorligida nemis diasporasi tashkilotlari yetakchi rol o‘ynaydi. Gumanitar aloqalar turli madaniy tashkilotlar orqali keng ko‘lamli munosabatlar doirasida amalga oshirilmoqda. Gumanitar sheriklik davlatlararo va mintaqalararo darajada iqtisodiy va siyosiy-diplomatik munosabatlarni mustahkamlash uchun muhim asos yaratadi. Shu sababli, madaniy-gumanitar aloqalar Germaniyaning “yumshoq kuch” siyosatining samarali yo‘nalishi bo‘lib, mintaqada nemis diasporalari va ta‘lim almashinuvi mexanizmlari (DAAD) orqali amalga oshiriladi.

9. Germaniyaning O‘zbekiston bilan hamkorlikka intilishi bevosita mamlakatning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlarini ifodalaydi. Qozog‘iston bilan munosabat esa geoiqtisodiy ustuvorlikni o‘zida namoyon etadi. O‘zbekiston Markaziy Osiyo markazida joylashgan, Afg‘onistonga chegaradosh va janubga chiqish imkoniga ega. Ushbu holat bugungi murakkab geosiyosiy vaziyatda Germaniya ta‘sirini kengaytirish uchun qo‘shimcha imkoniyat taqdim etishi mumkin. Germaniyaning Markaziy Osiyoga nisbatan geosiyosiy, tarixiy, hududiy yoki diniy-etnik da‘vo va ambitsiyalarining mavjud emasligi O‘zbekiston tomonidan uni yaqin hamkor sifatida baholanishiga olib kelmoqda. Germaniya bilan aloqalarni rivojlantirish O‘zbekiston uchun YI bozorlariga kirib borish va u yerdan investorlarni jalb qilish hamda tashqi siyosatini muvaffaqiyatli diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Bu O‘zbekistonning “O‘zbekiston-2023” strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishning muhim omilidir.

10. Germaniya va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlarni jadallashtirishda asosiy to‘siq bu geografik uzoqlik va muqobil transport koridorlarining barqaror emasligidir. O‘zbekiston tomonidan hamkorlikning ustuvor yo‘nalishi sifatida transport-logistika masalasida doimo kun tartibida. Germaniya tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanayotgan va O‘zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega “O‘rta yo‘lak” (The Middle Corridor – The Trans-Caspian International Transport Route (TITR)) singari loyihalar respublikamizning ta‘minot zanjirlarini xilma-xillashtirish

va iqtisodiy barqarorlikni oshirish maqsadlariga xizmat qiladi. Bu O‘zbekistonning Yevropa bozorlariga kirishda an’anaviy yo‘nalishlarga bog‘liqlikni kamaytiradi va geosiyosiy o‘zgarishlarga bardoshlilikni ta‘minlaydi. Bu O‘zbekistonning o‘z geografik cheklovlarini iqtisodiy imkoniyatlarga aylantira olishini sinovdan o‘tkazishga qaratilgan moslashuvchan yondashuvdir.

Xulosalardan tashqari, tadqiqot natijasida Germaniya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘zaro munosabatlarining zamonaviy bosqichida quyidagi **qiyinchiliklar** mavjudligi ajratib ko‘rsatish mumkin:

- Markaziy Osiyo davlatlari bozorlarining hajmi va aholi xarid qobiliyatining yuqori emasligi;

- Markaziy Osiyo davlatlari mutaxassislarining ingliz va nemis tillarini bilish darajasining pastligi, texnik kadrlarning ta‘lim darajasi va mintaqa mamlakatlarining texnologik rivojlanish darajasining yetarli emasligi;

- Qirg‘iziston va Tojikistondagi ma‘lum siyosiy beqarorlik; demokratik rivojlanishning “g‘arb va sharq mezonlari” o‘rtasidagi tafovut;

- mintaqada korrupsiyaning yuqori darajasi; siyosiy qarorlar qabul qilishda shaxsning hal qiluvchi roli;

- Germaniya va Yevropa Ittifoqi tomonidan ajratilgan moliyaviy yordamdan har doim ham samarali foydalanilmasligi;

- Germaniya va Markaziy Osiyo mamlakatlari aholisining mentaliteti va ongidagi farq, geografik uzoqlik.

Dissertatsiya tadqiqoti natijalari quyidagi **taklif va tavsiyalarni** ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Markaziy Osiyo mintaqasi integratsiyasini shakllantirishda Yevropa Ittifoqi tajribasidan samarali foydalanish va ko‘p tomonlama strategiyalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish maqsadida **Markaziy Osiyoning Yevropa Ittifoqi bo‘yicha strategiyasini** ishlab chiqish taklif etiladi.

2. Markaziy Osiyo ekspertlari tomonidan Germaniya va YI jamoatchiligi uchun mintaqaning geosiyosiy ahamiyatini yoritadigan keng ko‘lamli tahliliy materiallar tayyorlash, ularni siyosiy muloqotda faol targ‘ib qilinishini yanada samarali tashkil etish zarur. Bu xalqaro ilmiy-siyosiy doiralarda, jamoatchilikda O‘zbekiston imidjini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

3. O‘zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo‘lib, mintaqaning barcha davlatlari hamda uning ajralmas qismi deya baholanayotgan Afg‘oniston bilan ham chegaradosh. Mazkur geografik omildan foydalangan holda O‘zbekistonda milliy geosiyosiy konsepsiya sifatida **“O‘rtalikdagi makon”** yoki **“Markaziy kuch”** nazariyasini ilmiy muomalada ilgari surish maqsadga muvofiq.

4. Mamlakatimizning Germaniya bilan ikki tomonlama xalqalarb o‘rtasida diplomatiyani rivojlantirish, ilmiy-madaniy, ishbilarmonlik, migratsiya va xalq diplomatiyasi sohasida aloqalarini kuchaytirish maqsadida **O‘zbekiston qo‘shma oliy ta‘lim muassasalarini** tashkil etish.

5. Bugungi kunda O‘zbekiston rahbari xalqaro maydondagi har bir ma‘ruzasi va tashabbusida Afg‘oniston masalasiga alohida e‘tibor qaratmoqda. Shu nuqtayi nazardan Germaniyaning Afg‘onistonga gumanitar ko‘magi maqsadida Termiz aeroportidan foydalanishdagi hamkorlik tajribasidan kelib chiqqan holda, **Afg‘onistondagi iqtisodiy-ijtimoiy muammoli vaziyatni hal etishda Germaniyani**

**keng jalb etish siyosatini davom ettirish va qo'llab-quvvatlash.** Bu Afg'onistonning demokratik dunyoviy rivojlanish va bozor iqtisodiyoti yo'liga o'tgan Markaziy Osiyoga qo'shilishiga hamda uzoq muddatli istiqbolda mamlakat vaziyatini barqarorlashtirishga yordam beradi.

6. Germaniya siyosiy partiyalari qoshidagi tahliliy markazlar tajribasini o'rganib, **O'zbekiston partiyalarining tahlil markazlarini institutsional rivojlantirish** tavsiya etiladi. Bu tajriba kelajakda O'zbekistongiy saylovlarni yanada siyosiy partiyalar o'rtasida raqobatli va ularning savlom oldi dasturlarini takomillashtirishda, zamonaviy talablarni hisobga olishda muhim rol o'ynashi mumkin.

7. Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlik, integratsiya, geosiyosiy masalalar bilan shug'ullanuvchi ekspert va tadqiqotchilik o'rtasida hamkorlikni chuqurlashtirish, muntazam birgalikda ishlash va mintaqa bo'yicha yagona va umumiy manfaatli tashabbuslarni shakllantirish uchun **O'zbekistondagi mavjud tahlil markazlarining** (masalan, Markaziy Osiyo xalqaro instituti) **filiallarini qo'shni davlatlarda** tashkil etish.

8. "El-yurt umidi" jamg'armasi va Germaniya akademik almashinuv xizmati (DAAD) bilan hamkorlikda Germaniyada oliy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ilmiy tadqiqot va ta'lim sohasida aloqalarini kuchaytirish zarur.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

**БИТУРАЕВ УКТАМЖОН БАЗАРБАЕВИЧ**

**ПРОЦЕССЫ РАЗВИТИЯ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ФЕДЕРАТИВНОЙ  
РЕСПУБЛИКИ ГЕРМАНИЯ СО СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ**

**23.00.04 – Политические проблемы международных отношений,  
глобального и регионального развития**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертация доктора философии (PhD) по политическим наукам**

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по политическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2020.4.PhD/Ss44.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете востоковедения.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.tsuos.uz](http://www.tsuos.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

|                               |  |
|-------------------------------|--|
| <b>Научный руководитель:</b>  | <b>Касимова Назокат Анваровна</b><br>доктор политических наук, профессор                               |
| <b>Официальные оппоненты:</b> | <b>Нуриббетов Рахматулла Ибрагимович</b><br>доктор политических наук, Чрезвычайный и Полномочный посол |
|                               | <b>Назиров Мухтор Махмудович</b><br>доктор философии по политическим наукам (PhD), доцент и.о.         |
| <b>Ведущая организация:</b>   | <b>Узбекский государственный университет мировых языков</b>  |

Защита диссертации состоится « 28 » \_\_ 08 \_\_ 2025 года в \_12:00\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 при Ташкентском государственном университете востоковедения (Адрес: 100060, г. Ташкент, улица Амира Темура, дом 20. Тел.: (99871) 233-34-24; факс: (998971) 233-52-24; e-mail: [sharq\\_ilmiy@mail.ru](mailto:sharq_ilmiy@mail.ru)).

С диссертацией (PhD) можно ознакомиться на Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета востоковедения (зарегистрирована под № \_\_\_\_). Адрес: 100060, г. Ташкент, улица Амира Темура, дом 20. Тел.: (99871) 233-45-21.

Автореферат диссертации разослан « \_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 г.  
(протокол реестра рассылки № \_\_ от « \_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 г.)

**Д.Б. Сайфуллаев**  
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

**О.И. Алимов**  
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по политическим наукам (PhD), доцент

**Э.С. Султанова**  
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор политических наук, профессор

**ЕДЕНИЕ(аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В современной сложной геополитической ситуации изменение мирового порядка и рост критических взглядов на систему международных отношений показывают, что цели регулирования национальных, региональных и глобальных процессов, достижения международной стабильности зависят от текущего состояния отношений между государствами. Поэтому в условиях усиления взаимозависимости в развитии регионов и стран динамика формирования и развития отношений между Европейским Союзом и странами Центральной Азии становится как никогда актуальной.

Современная внешнеполитическая деятельность государств Центральной Азии, а также оценка геополитических и геоэкономических интересов внешних держав в регионе становятся предметом международных научных исследований. В частности, в этих исследованиях рассматриваются вопросы формирования и развития внешней политики Германии в отношении Центральной Азии, взаимовыгодного сотрудничества со странами региона, комплексного изучения многосторонних отношений в рамках формата «Центральная Азия – Германия», ставшего важной площадкой в этом плане. Расширяется спектр исследований, направленных на научно-теоретическое изучение влияния Германии на разработку стратегий ЕС в отношении региона на 2007 и 2019 годы.

Сегодняшняя внешняя политика Узбекистана основана на активных и прагматичных подходах. Тот факт, что развитие торгово-экономического, финансового, инвестиционного и технологического сотрудничества со странами Европы обозначено как особая цель в стратегии «Узбекистан-2030», что Германия, как движущая сила Европейского Союза, рассматривается для Узбекистана как стратегически важный партнер, что Узбекистан имеет возможность укрепить свои международные позиции, ускорить экономическую модернизацию и глобальную интеграцию за счет развития сотрудничества с Германией. «Узбекистан заинтересован в более полной реализации потенциала Германии в многоплановом сотрудничестве с Центральноазиатским регионом»<sup>44</sup>. Действительно, сотрудничество с Германией в сфере торговли, инвестиций, образования и технологий имеет важное значение для диверсификации экономики Узбекистана, процесса реформ и стратегии выхода на международные рынки. В этой связи изучение отношений Германии со странами Центральной Азии приобретает особую актуальность.

Диссертация в определенной мере служит реализации задач, изложенных в Указах Президента Республики Узбекистан № ПФ-158 от 11 сентября 2023 года «О Стратегии «Узбекистан – 2030»», № ПФ-60 от 28 февраля 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»; № PQ-4145 от 1 февраля 2019 года «О мерах по дальнейшему расширению многопланового сотрудничества между Республикой Узбекистан

---

<sup>44</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Марказий Осиё – Германия” иккинчи саммитидаги нутқи. Остона шаҳри, 2024 йил 17 сентябрь // <https://www.president.uz/uz/lists/view/7554>

и Федеративной Республикой Германия», № PQ-4680 от 16 апреля 2020 года «О мерах по коренному совершенствованию системы подготовки кадров в области востоковедения и повышению научного потенциала» и других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социально-правовом, экономическом, культурно-духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** Систематические исследования по этой теме проводятся в регионе и зарубежных странах, в том числе рядом политологов, юристов, экономистов и других представителей Германии и исследовательских центров, особенно в немецких исследовательских центрах.

Исследования, научные разработки и работы по теме можно сгруппировать следующим образом<sup>45</sup>:

*Первая группа.* Геополитическое значение региона Центральной Азии, сотрудничество между странами региона, среда безопасности в регионе, их отношения с внешними силами, в частности с ЕС, были изучены в научных трудах местных ученых. К ним относятся Ш. Арифханов, С. Джураев, Д. Сайфуллаев, Д. Мадаминава, О. Сирожов, С. Убайдуллаева, А. Умаров. Также прямые отношения стран Центральной Азии с Федеративной Республикой Германия, их отношения в двустороннем и многостороннем форматах, в частности сотрудничество в рамках Европейского Союза, были в определенной степени изучены местными исследователями, такими как Ф. Исматуллаев, М. М. Назиров, Э. Нуриддинов, М. Рахимов, С. Умаров, Х. М. Юнусов.

*Вторая группа* исследователей включает исследователей из стран СНГ, непосредственно занимавшихся данной темой. В частности, такие исследователи, как У. Акматбаев, А. Асима, А. Гольник, Б. Касенова, М. Лаумулин, С. Погорельская, Л. Рустамова, А. Туякбаева, С. М. Юн, подробно изучали политику Германии в отношении Центральной Азии как самостоятельно, так и в рамках ЕС.

Первое фундаментальное исследование по объекту исследования - политике Германии в отношении Центральной Азии в 1992 - 2009 годах – было проведено казахским ученым Айгуль Туякбаевой. Однако можно отметить, что размышления А. Туякбаевой об ограниченности содержания, отмеченные в ее исследовании 2009 года, не утратили своей актуальности.

Позднее свои исследования по этой теме создали также казахский учёный Б. Б. Касенова и узбекский учёный С. Ю. Умаров. Б. Б. Касенова

---

<sup>45</sup> Исследования этих авторов приведены в списке использованной литературы диссертации

подчёркивала важность изучения центральноазиатской политики Германии для укрепления национальных школ регионоведения и страноведения, формирования единой повестки дня по Центральной Азии на международной арене.

